

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA –QURILISH INSTITUTI

“MUXANDISLIK KOMMUNIKASIYALARI QURILISHI” FAKULTETI



**GEODEZIYA,
KARTOGRAFIYA VA
KADASTR KAFEDRASI**

401-Geodeziya, kartografiya va kadastr guruhi bitiruvchisi

MAHKAMOV NURBEK
RAJABMURODOVICHNING

*“Kadastr navbatchi xaritasini yaratish va yuritish ishlarini
takomillashtirish” mavzusidagi*

DIPLOM LOYIHASI

Tushuntirish xati 146 bet (format A-4)
chizmalar 6 varaq (format A-2)

Kafedra mudiri:  dots. D.O.Juraqulov

Diplom loyiha rahbari:  dots. Murodov S.

SAMARQAND -2014 yil

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ**

**«Мухандислик коммуникациялари қурилиши» факультети
«Геодезия, картография ва кадастр» кафедраси**

ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИ БЎЙИЧА

ТУШУНТИРИШ ХАТИ

Диплом лойиҳанинг мавзуси Diplom loyxada kadastz
noibatchi xaritasi yaratishidagi malu-
motlar bazasi taxlili asosida rojama-
li kadastz noibatchi xaritasini
yaratish va yaratishda qollanila-
digun kompyuter dasturlari va
malumotlar bazasini yaratish
va idar bayon qilinda, va mota
noibatchi xarita yaratishning
iztisodiy kozentkiçklari va und
jaratishidagi mehorat xarajizliqi.
atraf murit masalalari bayon qilindan.

Битирувчи 401-ГКК гуруҳ талабаси: Маҳкамов Ш.

Кафедра мудири: Журакулов Ш.

Диплом лойиҳаси раҳбари: Мақоев С.

Маслаҳатчилар: Самовулмурад Ш.

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ
“МУХАНДИСЛИК КОММУНИКАЦИЯЛАРИ ҚУРИЛИШИ” ФАКУЛЬТЕТИ
“ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ ВА КАДАСТР” КАФЕДРАСИ

ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ БЎЙИЧА
Т О П Ш И Р И Қ

Махкамов Нурбек

Группа: 401-ГКК

рейтинг дафтарчаси рақами _____

Диплом лойиҳасининг мавзуси:

Кадастр навбатчи харитасини яратиш ва юритиш ишларини
такомиллаштириш

Институт бўйича 2013 йил 28 декабр № 360 – у - сон буйруқ асосида
тасдиқланган.

2. Мавзу материалларини тўплаш, таҳлил ўтказиш ва долзарблигини асослаш: Кадастр харита ва планлари, уларни яратиш усуллари ва уларга асосланган маълумотлар таҳлилининг ўтказиши ва танланган мавзунинг долзарблигини асослаш.
3. Геодезик қисм:
- а) ўлчаш ишлари Кадастр навбатчи харитасининг математик асосини ишлаб чиқиши ва маълумотлар базасини яратиши.
- б) Ҳисоблаш ишлари Навбатчи харита яратиш ишларини ва маълумотлар базасини яратишни ва юритишнинг тақомиллаштириши.
4. Меҳнат хавфсизлиги ва атроф муҳит муҳофазаси: Навбатчи харита яратиш ва юритиш ишларидаги меҳнат хавфсизлиги экологик таркиби ва тартибининг ишлаб чиқиши.
5. Геодезик ишлар иқтисодиёти: Навбатчи харита яратиш ва юритиш ишларидаги харажатлар ва меҳнатга ҳар қандай қийматларини ҳисоблаш.
6. Диплом лойиҳа бўйича хулоса: Навбатчи харита яратиш ва юритиш ишларини тақомиллаштириш бўйича тақомиллаштириш ишлари.

7. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: Ш. Каримов, Ўзбекистон XXI асрдаги илм
моқда. Т. 2008. 1-Жураев Д.О. „Геодезия“ Т. 2006

8. Диплом лойиҳасининг чизмалари рўйхати:

1. Кадастр харита ва планлари.
2. Кадастр навбатги харитаси.
3. Навбатги харита яратиш ва юритиш учун маълумот
4. Навбатги харитани тақомиллаштириш учун компьютер
5. Тақомиллашган навбатги харитани юритиш.

Диплом лойиҳа қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

№	Диплом лойиҳасининг қисмлари	Бошланиши	Тугалланиши	Раҳбар, маслаҳатчилар	Имзо
1.	Мавзу материалларини тўплаш, таҳлил ўтказиш ва долзарблигини асослаш	24.02.2014	22.03.2014	С. Маноев	
2.	Геодезик қисм: а) ўлчаш ишлари б) ҳисоблаш ишлари	24.03.2014 28.04.2014	26.04.2014 24.05.2014	Р. Маноев	
3.	Меҳнат хавфсизлиги ва агроф муҳит муҳофазаси	26.05.2014	07.06.2014	А. Мирзаев	
4.	Геодезик ишлар иқтисодиёти	09.06.2014	17.06.2014	Салахиззинова	
5.	Диплом лойиҳасини расмийлаштириш ва тақризга юбориш	16.06.2014	21.06.2014	С. Маноев Журакулов Д.	
6.	Диплом лойиҳа химояси	28.06.2014	28.06.2014	Н. Махкамов	

Изоҳ:

1. Диплом лойиҳасининг чизмалари 420x524 мм А-2 форматда 5-6 варақни, тушунтириш хати 210-297 мм ўлчамдаги А4 форматли оқ қоғозда, умумий сўзлар сони 10-15 мингтани ташкил этиши лозим.
2. Ҳар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида раҳбар ёки маслаҳатчи томонидан имзоланади, сўнгра кафедра мудири рухсатидан кейин навбатдаги қисмни бажаришга киришилади.

Топшириқ берилган сана

Тугалланган диплом лойиҳасини топшириш санаси

«20» 02 2014 й.

«23» 06 2014 й.

Диплом лойиҳа раҳбари:

Топшириқ бажариш учун қабул қилинди

Талабанинг имзоси:

Кафедра мудири:

Маноев С.

Махкамов Нурбек

Доц. Д. Журакулов

Kadastr navbatchi xaritasini yaratish va yuritish ishlarini takomillashtirish

Mundarija:

Kirish.

1-bob. Shahar qurilishidagi topogeodezik loyihalash ishlari.

1.1. Shahar qurilishidagi loyihaviy hujjatlar;

1.2. Shahar qurilishidagi binolar turlari va topogeodezik loyihalash ishlari;

1.3. Shahar qurilishi va uni loyihalashda topografik asoslarni yaratish;

Xulosa.

2-bob. Shahar xududining navbatchi kadastr xaritasini yaratish.

2.1. Xududning kadastr syomkasini bajarish;

2.2. Kadastr navbatchi xaritasiga kiritiladigan ma'lumotlar bazasini yaratish;

2.3. Xududning kadastr xaritasini elektron dasturlar asosida yaratish va yuritish;

Xulosa.

3-bob. Kadastr navbatchi xaritasini yaratish va yuritish jarayonida mehnat xavfsizligi va atrof-muhit ekologiyasi.

4-bob. Kadastr navbatchi xaritasini yaratish va yuritish ishlari iqtisodiyoti.

Internet ma'lumotlari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa yo'nalishlardagi muammolarni hal qilish yo'lida dadil qadam qo'yilmoqda. Bunda barcha sohalar kabi geodeziya, kartografiya, kadastr sohalariga ham katta e'tibor qaratildi. Hozirda olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlarni yanada mukammallashtirish maqsadida sohaga doir yangi texnika va texnologiyalarni hayotga tadbiq qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

So'nggi vaqtlarda, geodeziya bilan bir qatorda kadastr tuzishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Chunonchi, sohani rivojlantirish maqsadida kadrlar tayyorlash rivojlangan Shvetsiya, Rossiya, Germaniya mamlakatlarning kadastr tuzish borasidagi tajribalarini o'rganish va yangi, zamonaviy texnologiyalarni yaratish ustida salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Yer va boshqa turdagi ko'chmas mulklarni ro'yxatga olish, ular haqida aniq ma'lumotlarni to'plash, ularni bir joyda ma'lumotlar bankiga (MB) yig'ib, kerak bo'lganda, ulardan samarali foydalanish, yer, ko'chmas mulk egasi bo'lishi davlatning, jismoniy shaxsning yerga, ko'chmas mulkga bo'lgan huquqini himoya qilish, soliq tizimini mukammallashtirish, ko'chmas mulk haqidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, ularni kim ochdi bozorida sotish va sotib olish kabi juda ko'p masalalarni yechish maqsadida Davlat Geodeziya kartografiya bosh boshqarmasi tizimida yer kadastr tuzildi.

Undan tashqari, ko'chmas mulkka yangidan bunyod qilinayotgan bino va inshootlar yoki uning ma'lum bir qismiga egalik huquqini rasmiylashtirish, bu huquqni muhofaza qilish maqsadida ko'chmas mulk kadastr ham tuzildi.

Kundan-kunga bozor munosabatlari rivojlanayotgan bir paytda, ko'pdan ko'p bozor iqtisodiyotiga oid masalalarni tez va samarali qilib hal qilish geodeziya soxasi mutaxassislaridan chuqur bilim va mahorat talab qiladi.

Avvalambor, shuni ta'kidlash joizki, qurilishning barcha turlarini bajarish uchun Davlat Geodeziya tarmoqlari (DGT) barcha talablarga javob beradigan darajada

barpo etilgan bo'lishi kerak. Bu borada Respublikamizda ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi hududida Davlat Geodezik tarmog'ini, Yer yo'ldoshi tizimi texnologiyasi bo'yicha takomillashtirish masalasiga ko'p miqdorda mablag' ajratib, bu ishning rivojiga katta ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Yer Kodeksiga" [1] "Davlat yer kadastrini" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga [2] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to'g'risida" gi № 543 qaroriga [3] va "O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 1999 yil 27 maydagi № 736 yo'riqnomasiga [4] asosan "Fazoviy koordinatlarning yagona tizimini qo'llash", "Davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ko'chmas mulklarning yangi ko'p qavatli bino va inshootlarning o'rni va o'lchamlari to'g'risida"gi ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iboratdir. Berilgan tartibga muvofiq aniqlangan obyektlar va yer uchastkalarining huquqiy maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar, topografik-geodeziya materiallari va boshqalar geodezik o'lchash ishlarining keng tarmoqli tizimining asosini tashkil etadi.

Yer uchastkalarining naturada chegaralarini belgilash, geodeziya usullari bilan yoki joyning o'zida chegaralarining buzilishi nuqtalarini zarur aniqlikda belgilash va ularni qoziqlar bilan mahkamlash yo'li bilan kartografiya materiallaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Yer uchastkalarining umumiy maydoni talab qilinadigan aniqlikda tahliliy, grafik-tahliliy yoki mexanik usullar bilan aniqlaniladi.

Yer uchastkalarining umumiy maydonini hisobga olish, asosan, geodeziya usullari bilan yuqori aniqlikda talab etmaydigan hollarda esa kartometrik usullar bilan bajariladi deb davlat huquqiy me'yoriy xujjatlarida qayd etilishi kadastr

ishlarini amalga oshirishda topogeodezik ishlarning muhim o'rin egallashi ko'rinib turibdi.

1-bob. Shahar qurilishidagi topogeodezik loyihalash ishlari.

1.1. Shahar qurilishidagi loyihaviy hujjatlar.

Shaxar qurilishidagi asosiy hujjatlardan biri – bu shaxar bosh plani hisoblanadi. Bosh plan shaxarning 25-30 yillik kelajakdagi xalq xo'jalik rejalari va kengayishi asosida sotsial sferalarni: turar joylar, sanoat zonalar, umumiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari, shaxar transporti yo'llari, muhandislik tarmoqlari va shaxar obodonchiligining kelajakdagi loyihaviy rejasi hisoblanadi.

Shaxar bosh plani o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Shaxar bosh planining asosiy chizmasi;
- Mavjud shaxar plani (bosh plani, ishlab chiqarish xolatidagi tayanch shaxar plani);
- Shaxar qurilishi bo'yicha me'moriy-fazoviy kompozision materiallar;
- Territorialarni muhandisona tayyorlash va muhandisona jihozlashda tabiiy sharoitlar sxemasi;
- Shaxar ichki va tashqi transport sxemalari;
- O'quv muassasalari, sosial-madaniy xizmat ko'rsatish obyektlarining joylashish sxemasi;
- Birinchi navbatda quriladigan obyektlarning joylashish sxemasi;
- Shaxar navbatchi xaritasi;
- Tushuntirish xati.

Shaxarning bosh plani va shaxar qurilishidagi muhandislik kommunikasiyalarining (transport yo'llari, suv, gaz, elektr, aloqa) joylashish loyihalarini tuzish hamda qurishda, undan tashqari, qurilmagan uchastkalarda yer yuzi satxini reja asosida tekislash loyihalarini tuzish hamda joyga ko'chirish ishlarida 1:5000 lik masshtabda topografik plan asos qilib olinadi.

Axolisi 500 ming dan ortiq bo'lgan shaxarlarda 1:10000 masshtabli topografik planda bajariladi.

Shaxar bosh plani birlamchi xujjat bo'lib, shu asosida shaxarning quyidagi planlari yaratiladi:

- Qurilishning xomaki va mukammal loyihaviy rejasi;
- Shaxarning sanoat rayoni loyihaviy rejasi;
- Obodonlashtirish loyihaviy rejasi;
- Ko'kalamzorlashtirish loyihaviy rejasi va boshqa loyihaviy ishlar;
- Shaxar transporti loyihaviy rejasi.

Qurilishning xomaki va mukammal loyihaviy rejasi.

Shaxarning aloxida qismidagi qurilish xududi;

Axoli yashash rayonlari yoki mikrorayonlari;

Umumiy shaxar markazi;

Umumjamo'a komplekslari;

Birinchi navbatda quriladigan qurilishlarning loyihasi asosida 3-5 yil ichida qayta obodonlashtiriladigan yoki ta'mirlanadigan qurilishlar.

Mukammal loyihaviy reja quyidagi tartibda amlga oshiriladi:

- ✓ Shaxar tizimidagi loyihaviy rayon joylashish sxemasi;
- ✓ Loyihaviy qizil chiziq (qurilish chizig'i) yoki qurilish xomaki loyihasi;
- ✓ Qizil chiziq rejasini belgilash chizmasi;
- ✓ Xududni muhandisona tayyorlash va loyihalash sxemalari;
- ✓ Shaxar transporti va yo'lovchilar xarakatini tashkillashtirish sxemalari;
- ✓ Ko'chalarning ko'ndalang qirqimi planlari;
- ✓ Tushuntirish xatlari;

Qizil chiziq va qurilish xomaki planlari: 1:500 va 1:2000 lik topografik kartalarda ifodalanadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- Mavjud qurilishlarning barchasi;
- Loyihaviy ko'cha tizimi, o'tish va piyoda yo'laklari, yashil o'simliklar;
- Loyihaviy uy-joy, jamoa binolari va inshootlarning loyihaviy joylashishi;
- Qizil chiziq xamda ko'cha o'tish yo'lakchalarining ko'ndalang profili qirqimi.

Qizil chizikli tayanch bino, inshoot yoki geodezik punktlarga bog'lash chizmalari qizil chiziqning burilish nuqtalari koordinatalari ko'rsatilgan holda, qizil chiziq va qurilish xomaki plani nusxasida ko'rsatiladi.

Xududni muxandisona tayyorlash va vertikal loyihalash sxemalari - qizil chiziq plani va nusxasida ko'rsatiladi. Sxemada quyidagilar ko'rsatiladi:

- Qizil (loyihaviy) va ishchi (qora) belgilar (balandliklar) o'tish yo'lakchalarining o'qi bo'yicha mikrorayon burchaklarida, qizil chiziqning burilish nuqtalarida va yer satxining sinish nuqtalarida;

- Xududning muhandisona yechimi (suv oqimi yo'nalishlari, tuproqni ko'mish yoki qazish, himoya inshootlari sxemalari);

Qurilish loyihasi – yashash mikrorayoni, kvartel yoki yashash uy-joylarning guruxi hamda jamoa kompleks binolarning mukammal loyihaviy va xomaki qurilish planlari asosida ishlab chiqiladi. U ikki bosqichli bo'lib, texnik loyiha va ishchi chizmalar yoki birinchi bosqichli texnik ishchi loyiha (texnik loyiha ishchi chizmalari bilan birgalikda tayyorlangan bo'ladi) dan iborat bo'ladi.

Texnik proyektida quyidagilar ko'rsatiladi:

- Qurilishning joylashish situatsion plani;
- Qurilish bosh plani;
- Qurilish maketlari;
- Vertikal loyihalash chizmalari;
- Muhandislik tizimi chizmalari;
- Xududni ko'kalamzorlashtirish chizmasi;
- Yakka tartibdagi binolarning loyihaviy chizmalari va namunaviy pasporti;
- Qurilishni tashkillashtirish loyihasi;
- Umumlashgan smeta-moliyaviy xisob-kitoblar;

Barcha texnik loyiha materiallari – 1:500 -1:1000; situatsion plan – 1:5000-1:10000 lik masshtablarda bajariladi.

Ishchi chizmalar tasdiqlangan texnik loyiha asosida quyidagi tarkibda ishlab chiqiladi:

- Qurilish uchastkasining bosh plani 1:500-1:1000 lik masshtabda;
- Razbivka chizmalari 1:500-1:1000 masshtabda bajarilib, bino inshootlarining joylashishini geodezik tayanch nuqtalariga bog'lash ko'rsatiladi;
- Qurilishga kirishilgan bino-inshootlar chizmalari;
- Xududning 1:1000 lik masshtabdagi vertikal loyihaviy chizmasi, unda loyihaviy gorizontallar, balandlik belgilari va nishabliklar, yer ishlari kartogrammasi ko'rsatiladi;
- 1:500 lik masshtabdagi suv, gaz, issiqlik, elektr va aloqa ta'minoti, oqova chizmalari;
- 1:500 lik masshtabdagi dendrologik daraxtlarni o'tkazish chizmasi;
- Qurilish smetasi.

Shaxar sanoat rayonining loyihaviy rejasi.

Shaxar bosh planiga va mavjud korxonalarni rivojlantirish va yangisini qurish loyihalariga asosan quyidagi tarkibda ishlab chiqiladi:

- 1:2000 lik masshtabdagi muxandislik tizimlarining joylashish sxemasi;
- 1:2000 lik masshtabdagi xududni muxandisona tayyorlash va vertikal loyihaviy chizmasi;
- 1:100 yoki 1:200 lik masshtabdagi magistral ko'chalarning va o'tish yo'laklarning ko'ndalang profil qirqimi;
- Tushuntirish xatlari.

Axolisi 25000 dan ko'proq bo'lgan shaxarlarda hamda kurort shaxarlarda shaxar atrofi xududlarning loyihaviy rejasi xam tuziladi.

Axolisi 25000 dan kamroq bo'lgan shaxar tipidagi poselkalarda bosh plan tarkibida shaxarga yondosh rayon loyihaviy sxemasi xam ishlab chiqiladi.

1.2. Shahar qurilishidagi binolar turlari va topogeodezik loyihalash ishlari.

Shaxar binolari, ularning konstruktiv turlari, shakllari va qavatligiga qarab, quyidagicha klassifikasiya qilinadi:

-konstruksiya turi bo'yicha:

- ❖ Toshli-g'ishtli;
- ❖ Monolit (quyma), ko'chma temir beton-sirpanuvchi, ko'chma-blokli va shchitli qoliplar bilan qurilgan;
- ❖ Katta qolipli, bloklardan qurilgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan;
- ❖ Katta panelli, barcha panellar, jumladan, devor , ichki va tom qoplamalari (panellari) asosiy tayanch konstruksiyalari hisoblanadi;
- ❖ Karkasli, asosiy tayanch elementlari - kolonnalar, rigellar va yopiq plitalar hisoblanadi.
- ❖ Xajmi blokli, bunda barcha bino konstruksiyalari maxsus zavodlarda tayyorlanadi. (xonalar, sanuzellar va boshqalar).

-qavatliliği bo'yicha:

- ❖ Kam qavatli (1-2 qavat);
- ❖ O'rta qavatli (3-5 qavat);
- ❖ Ko'p qavatli (6-12 qavat);
- ❖ Yuqori qavatli (13-22 qavatli);
- ❖ Baland qavatli (22 qavatdan ko'p).

-shakliga ko'ra :

- ❖ Bir seksiyali (bir podezdli);
- ❖ Uzaytirilgan (cho'zilgan) 2 seksiyadan ortiq;
- ❖ Murakkab shaklli – aylanma binolar, burilma tutash binolar, aralash seksiyali.

Qurilishdagi geodezik ishlarni kompleks o'lchash ishlari deb qarash mumkin, bunda qog'ozdagi geometrik qurilmalarni loyihaviy o'lchash , hisoblash va ularni joyga ko'chirishdan iborat bo'lib, bunda binolarning to'g'ri va aniq o'zaro joylashishini, qurilayotgan bino-inshootlarning geometrik o'lchamlari, shakli va

ularni xuddi loyihadagiga o'xshashligini hamda aniqliklari – normativ xujjatlardagi qoidalarga mos kelishi ta'minlanishi kerak.

Bino-inshootlarni qurish, montaj qilish jarayonida geodezik ishlar quyidagi tartibda bajariladi:

1. Qurilish maydoni tanlanadi, ma'lumotlar tanlanib, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi;

2. Qurilish jarayonini loyihalash: topo-geodezik qidiruv ishlari, geodezik ta'minlash bo'yicha boshqa qidiruv ishlari, qurilish jarayonidagi loyihani ta'minlash uchun qo'shimcha mavjud ma'lumotlarni to'plash;

3. Qurilish konstruksiyalarini tayyorlash: bino-inshoot shaklini ta'minlovchi qoliplarning geometrik o'lchamlarini tekshirish, qurilish konstruksiyalarining geometrik o'lchamlarini statistik tekshiruvdan o'tkazish (vertikalligi, gorizontalligi va boshqa o'lchamlari);

4. Qurilish davridagi tayyorgarlik: geodezik rejalashtirish (razbivka), tayanch shaxobchalarini yaratish, xududni muxandisona tayyorlash, inshootning bosh va asosiy o'qlarini joyga ko'chirish;

5. Qurilish davridagi asosiy jarayon: inshootlarning xajmiy-loyihaviy va konstruktiv elementlari o'qlarni joyga ko'chirish, binoning yer osti va yer usti qismlarini qurish-montaj qilishda geometrik ta'minot, qurilish elementlarining ijroi syomkasi va ularni xujjatlashtirish;

6. Qurilishni tugallash: qurilish jarayonidagi bajarilgan geodezik ishlarning natijalari haqida texnik xisobotni tayyorlash va topshirish, ijroviy bosh planni tuzish, maxsus muxandislik plan, profil va qirqimlarni tuzish.

Geodezik ishlab chiqarish loyihasi.

Geodezik ishlar aniqligini ta'minlash va o'z vaqtida bajarish, qurilish maydonidagi ishlarni to'g'ri tashkil qilish, tegishli geodezik usullarni va asboblarni to'g'ri qo'llanadigan mablag' bilan ta'minlanishiga bog'liqdir.

Qurilish maydonidagi geodezik ishlarni loyihalashda qurilishni tashkillashtirish loyihasi (QTL) va ishlab chiqarish loyihasi (ICHL) asos qilib olinadi.

QTL – bosh loyihalovchi tashkilot, ICHL – QTL asosida qurilishni olib boruvchi tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi.

QTL ning geodezik qismida geodezik ishlarni tashkillashtirish loyihasi (GITL) tuziladi, bunda quyidagilar ko'rsatiladi:

- Balandlik va planli geodezik rejalash tayanch nuqtalarni yaratish turlari, xajmi, muddati, tartiblari;
- Butun qurilish jarayonidagi geodezik rejalashtirish (razbivka) ishlari turlari, xajmi, muddati, tartiblari;

Geodezik ishlarni bajarishdagi zarur aniqliklar juda murakkab va ulkan obyektlarni qurishda quyidagi qo'shimcha ilmiy ishlar olib boriladi:

- Ilmiy tekshirish ishlari (ITI) va konstruktor tadqiqot izlanishlari (KTI);
- Aloxida geodezik ishlarni bajarish uchun maxsus geodezik tashkilotlarni tashkil etish;

ICHL dagi geodezik qismida geodezik ishlab chiqarish loyihasi (GICHL) qurilish loyihasini joyga ko'chirishdagi geodezik ishlar texnologiyasiga aniqlik kiritib, bunda quyidagilar ko'rsatiladi:

- bino- inshootning bosh va asosiy o'qlarini joyga ko'chirishdagi geodezik ishlar aniqligi va bajarish metodikasi sxemasi;
- konstruksiya elementlarining geometrik o'qlari va belgilarning joylashishi va maxkamlanishi sxemalari;
- inshootlarni qurishda va ularning konstruktiv elementlarini o'rnatishdagi aniqliklarni ta'minlovchi geodezik tekshiruv ishlari sxemalari;
- qurilgan obyektlar va ularning qurilish elementlari ijroiyy syomkasini bajarish ishlari tarkibi, tartibi va xujjatlashtirilishi;
- bino qavatlariga rejaviy o'q va balandliklarni uzatish, maxkamlash va qayta tiklash ishlarining bajarilish aniqliklari ko'rsatilgan sxemalar;
- inshootlar va yer satxining cho'kishini aniqlashdagi geodezik kuzatish ishlarini tashkillashtirish sxemalari (agar zarurat tug'ilsa);
- me'yoriy xujjatlar ro'yxati;

1.3. Shahar qurilishi va uni loyihalashda topografik asoslarni yaratish.

Shaxarlarning bosh planini yaratishda, jumladan, shaxarning aloxida rayonlarini yoki aloxida bino-inshootni to'liq loyihaviy rejalashda aniq topografik materiallardan foydalaniladi. Bu topografik planlardan faqat shaxarning qurilishi va uni loyihalashda emas, balki murakkab shaxar xo'jaligidan foydalanishda va uni boshqarishda ham keng qo'llaniladi.

Shaxar territoriyasida asosan 1: 500, 1:2000, 1:1000 va 1:5000 lik masshtabdagi topografik syomka ishlari bajarilib, bu 1-jadvalda topografik planlarda relyef qirqimi balandligi quyidagicha ifodalanadi:

1-jadval

Syomka qilinayotgan territoriyalarning relyeflari xarakteristikasi	Syomka masshtablari			
	<i>1:500</i>	<i>1:1000</i>	<i>1:2000</i>	<i>1:5000</i>
	Relyeflar qirqimi balandligi, m			
Tekislik, qiyalik burchagi 2 ga cha	<i>0.5-1.0</i>	<i>0.5</i>	<i>0.5-1.0</i>	<i>0.5</i>
Tepalik, qiyalik burchagi 4 ga cha	<i>1.0-2.0</i>	<i>0.5</i>	<i>0.5;1.0;2.0</i>	<i>0.5</i>
Past balandlik, qiyalik burchagi 6 ga cha	<i>2.0-5.0</i>	<i>0.5-1.0</i>	<i>1.0-2.0</i>	<i>0.5</i>
Tog' va tog' oldi	<i>2.0-5.0</i>	<i>1.0</i>	<i>2.0</i>	<i>0.5</i>

Maxalliy (zichlashtirish) geodezik tayanch shaxobchalari.

Yuqorida territoriyalarning 1:25000 va 1:10000 masshtabli topografik planini olish uchun tayanch shaxobcha barpo qilishda har 50-60 km² joyiga bitta davlat geodezik tayanch punkti to'g'ri kelishi lozim deyilgan edi. 1,2 va 3 klass davlat geodezik tayanch shaxobchalarini o'tkazishda punktlar shunday joylashadi: 1:5000 va undan yirik masshtabli topografik planlar olish uchun kerak bo'lgan geodezik tayanch shaxobchalari 4-klass davlat geodezik tayanch shaxobchalari va maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari faqat yirik masshtabli topografik plan olish uchun

emas, balki turli injenerlik-geodezik ishlarni bajarish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, shaxar, posyolka va sanoat korxonolari territoriyalarida quriladigan maxalliy geodezik tayanch shaxobchalaridan shaxar, posyolkalarni planlashtirishda hamda qurilish loyihalarini, shaxar yer osti kommunikasiyalari (vodoprovod, kanalizasiya, gazoprovod, telefon, elektrofikatsiya va issiqlik bilan ta'minlash) loyihalarini joyga ko'chirishda, sanoat korxonolari va uy-joy binolarining qurilishini tekshirishda, qizil chiziqlarni o'tkazishda, shuningdek, metropoliten, kanal, ko'prik va boshqalarning loyihalarini joyga ko'chirishda hamda bu inshootlarni qurishda foydalaniladi.

Maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari ham planli va balandlik tayanch shaxobchalariga bo'linadi. Aniqligiga qarab, bu shaxobchalar 1 va 2 bosqich poligonometrik va analitik shaxobchalarga ajratiladi.

Maxalliy balandlik tayanch shaxobchalari geometrik nivelirlash metodida barpo qilinadigan texnik nivelirlash shaxobchalaridan iborat bo'ladi.

2-jadvalda shaxar, posyolka territoriyalari va sanoat qurilish maydonlarini planga olish uchun ularning katta-kichikligiga qarab o'tkaziladigan geodezik tayanch shaxobchalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Davlat geodezik tayanch shaxobchalarini zichlashtirish maqsadida o'tkazilgan 4-klass triangulyatsiya iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lmasa, masalan, ko'p mablag' sarflanadigan baland signallar qurishga to'g'ri kelsa yoki cho'l joylarda signallar qurish uchun material topilmasa, bu shaxobcha o'rniga 4-klass poligonometrik shaxobcha triangulyatsiya va poligonometriya punktlari oralig'ida o'tkaziladi. Ular ayrim punkt, qator uchburchaklar yoki bir necha uchburchaklardan iborat bo'ladi. Ko'pincha 2 bazis oralig'ida o'tkaziladigan qator uchburchaklar qo'llaniladi.

Analitik shaxobchalar uchburchaklarning ichki burchaklari 30° dan kichik, 120° dan katta bo'lmasligi kerak. Uchburchak uchlari qilib asbob o'rnatilishi mumkin bo'lgan va bir-biridan ko'rinadigan nuqtalar tanlanadi.

2-jadval

Planga olinishi kerak bo'lgan territoriya, ga	O'tkaziladigan geodezik tayanch shaxobchalari		Nivelirlash shaxobchalari	Plan olish shaxobchalari
	Davlat geodezik tayanch shaxobchalari	Maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari		
20000 va undan katta	2.34	1 va 2	2,3 va 4	-
5000 dan 20000 gacha	3.4	1 va 2	2,3 va 4	-
1000 dan 5000gacha	4	1 va 2	3 va 4	-
500 dan 1000 gacha	4	1 va 2	4	-
250 dan 500 gacha	-	1 va 2	4	-
100 dan 250 gacha	-	2	4	teodolit
100 gacha	-	-	-	yo'li

Uchburchak uchlari geodezik belgilar bilan uzoq vaqt saqlanadigan qilib belgilanadi. Analitik shaxobchalar punktlarining otmetkalari 4-klass nivelirlash natijasida aniqlanadi.

3-jadval

Analitik shaxobcha bosqichi	1 ta burchakni o'lchashdagi o'rtacha kvadratik xato.	Masofani o'lchashdagi nisbiy xato cheki	Uchburchak tomon uzunligi, km	Xar bir uchburchakda burchaklarning cheki farqi
1	5□	1:50000	2-5	20□□
2	10□□	1:20000	0.5-3.0	40□□

Shaxar, posyolka territoriyalarida va sanoat-qurilish maydonlarida yuksak aniqlikdagi shaxobchalar o'tkazilishi talab qilinadi. Chunki bunday joylarning yirik masshtabli topografik planini olishga to'g'ri keladi. Bunday shaxobchalarda uchburchaklarning ichki burchaklarining farqi $\pm 15 \square \square$ dan katta bo'lmasligi,

burchak o'lchash aniqligi $3''$ dan, masofa o'lchash aniqligi esa 1:100000 dan ziyod bo'lishi kerak. Yuksak aniqlikdagi 4-klass analitik shaxobchalarda uchburchaklar tomonlari 1-5 km, 1-bosqichda 2-5 km, 2-bosqichda esa 0.5-3 km bo'lishi mumkin.

Odatda, yuksak aniqlikdagi 1-bosqich poligonometrik shaxobcha katta territoriyalarida ($15-25 \text{ km}^2$ joyda) barpo qilinadi. Ba'zan 4-klass triangulyatsiya o'rniga 1-bosqich poligonometrik shaxobchalar o'tkazilishi mumkin. Bunday vaqtda masofa o'lchashdagi o'rtacha kvadratik xato cheki esa $3''$ dir. Yuksak aniqlikdagi 1-bosqich poligonometriya yo'lining uzunligi yuqori klass shaxobcha punktlari oralig'ida 7 km ga bo'lishi mumkin. 1-bosqich poligonometrik shaxobcha tomonlarini o'lchashdagi nisbiy xato cheki-1:10000, burchak o'lchashdagi o'rtacha kvadratik xato cheki esa $\pm 50''$ dir. Yuqori klass shaxobcha punktlari oralig'ida esa 2.0 km bo'lishi mumkin; bunday vaqtda poligonometriya yo'lining uzunligi 4-5 km gacha bo'lishi mumkin.

2-bosqich poligonometrik shaxobcha o'tkazishda masofa o'lchashdagi xato cheki 1:5000, burchak o'lchashdagi o'rtacha kvadratik xato cheki esa $10''$ ga teng. Imorat tushgan joylarda yuqori klass shaxobcha punktlari oralig'ida o'tkaziladigan 2-bosqich poligonometrik yo'lining uzunligi 2.5 km, tugun nuqtalar oralig'ida 1.5 km, yo'l tomonlarining uzunligi taxminan 200 m, imorat bo'lmagan ochiq joylarda yo'lining uzunligi 3-4 km bo'lishi mumkin.

Maxalliy poligonometrik shaxobcha o'tkazishda poligon burilishi burchaklari aniq teodolitlar bilan o'lchanadi. Burchak o'lchashdagi xato cheki quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\Delta Q_{\text{chek}} = \pm m\sqrt{n} \quad (1.3.1)$$

m- burchak o'lchashdagi o'rtacha kvadratik xato;

n- burchaklar soni;

Maxalliy balandlik shaxobchalari geometrik nivelirlash metodida nisbiy balandliklar xatosi:

$$\Delta h_{\text{chek}} = \pm 50 \text{ mm} \sqrt{L} \quad (1.3.2)$$

dan katta bo'lmaydigan qilib o'tkaziladi.

Syomkalarni geodezik asoslash

Syomkalarni geodezik asoslashda quyidagilarni bajarish talab qilinadi:

- yer uchastka chegarasi burilish koordinatalar nuqtasini aniqlash;
- obyekt syomkasiga kirgan bino va inshoot burchak koordinat nuqtalarini aniqlash;
- yer osti kommunikatsiya chiqish koordinat nuqtasini aniqlash;
- holatlar syomkasi;

Joylarda uchastka chegarasini qayta tuzganda, yer uchastka burilish nuqtalari markirovkalanadi, koordinat nuqta burilish chegarasi bir marta aniqlanadi.

Geodezik syomka setda ish uchastkasida SNIIP 1.02.07-87 va SNIIP -104-97 ko'rsatma asosida tuziladi.

Geodezik set syomkasi qurilmasi, geodezik set tayanch nuqtalariga yoki mustaqil geodezik sifat asosida (shartli koordinat sistemasi), lekin bu holda u geodezik tayanch seti nuqta bilan ulanish sharoiti ta'minlanishi kerak, ya'ni syomka qilinadigan nuqta (4dan kam), joylarda uzoq muddat saqlanib turuvchi belgilar bilan bog'lanadi.

Planli geodezik to'rdagi syomka holati, geodezik yo'llarni davom etish yoki mikrotriangulyatsiya, trilateratsiya tasmali burchak to'rlaridan, sputnikka yo'naltirish sistemasi (GPS va boshqalar), to'g'ri va kombinirlashgan belgilardan iborat bo'lib, topografik syomkalar masshtabi 1:500 SNIIP 1.02.07-87 olingan uslub va ruxsatnomaga to'g'ri keladi.

Geodezik to'ra da bo'lgan syomka nuqtalari doimo biriktirib borilishi shart, qoida bo'yicha, vaqtincha belgilar (metall suyanchiqlar, yog'och qoziq va hokazolar) qurilish territoriyalarida, doimiy syomkalarini nuqta sifatida, kapital qurilish bino inshootlarning burchagi bo'lib, markaziy lyuklar, quduqlar, yer osti kommunikatsiya va boshqa joylarda aniq belgilanishiga yordam beradi va konturlarni aniqlaydi va doimiy ravishda syomkaga yaqin bo'lgan burchak va kvartal qurilishlari holatini o'rganib boradi. Doimiy nuqta syomkalariga alohida katalog yuritiladi.

Syomka setini rivojlantirib borishda quyidagilar ishlatiladi.:

- o'rtacha aniqlikdagi T-5 optik teodolitlar va metalli komparirovkali o'lchash tasmalar, ruletka va svetodalnomerlar;
- elektron taxseometrlar;

GPS priyomniklaridan foydalanish uslub va taxseometrlari geodezik ishlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish "GPS priyomniklarini yaratish va setlar rekonstruksiyasida RTM ni ishlatish" (O'zgeodezkadastr, 1998 yil)da batafsil berilgan.

Teodolitning geodezik setlar o'rtasida tayanch punktlarida yurishi, alohida yurish turlari yoki aloqa nuqtalar sistemasida bajariladi. Teodolit bog'lanish yo'li burchak o'lchash xatoligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$f_{чекли} = 1^1 \sqrt{n}$$

(1.3.3)

n - burchaklar soni .

Bu xatolik 1:2000 dan ziyod bo'lmasligi kerak.

Alohida joylashgan yer uchastkalarini syomka qilishda yopiq poligonlar, ya'ni geodezik setga bog'langan tayanch nuqtalar sxemasidan foydalanish ma'qul. Tomonlari uchtdan kam bo'lmagan geodezik punktga bog'langan bo'lib, uzunligi

100 m dan oshmasligi kerak bo'lgan osma teodolit yo'lidan foydalaniladi. Geodezik setlarda syomkalarni rivojlantirishda qutbiy usuldan foydalanilganda, elektron taxeometr yordamida punktlar orasidagi masofani 1000 m gacha uzaytirilishi mumkin. Bu holda, o'rtacha gorizont burchaklarda kvadratik xatolik 151 dan oshmasligi kerak. Alohida yo'naltirilgan teodolit yo'li, qoidaga ko'ra, bosh punktga ulanishda direksion burchakga bog'liq bo'ladi.

Syomka setini yasashda quyidagilarga ruxsat beriladi:

- teodolit yo'li ikki bosh nuqtaga ulanganda biriga burchak bog'lanmasligi mumkin;

- geodezik setda tayanch punkti koordinat bog'lash sharti bilan burchak o'lchovi ikki polupriyomda bajariladi. Bu holda u 1:2000 dan oshmasligi kerak

Planli syomka seti elektron taxeometr yordamida rivojlantirilganda (o'lchov natijalari yig'ilib qayd qilingan holda) syomka ishlari bir vaqtda bajariladi va bu holda syomka seti rivojlanish natijalari kompyuterda raspechatka holatida rasmiylashtiriladi.

Geodezik set syomkalari rivojlanishida quyidagilarga e'tibor beriladi:

- teodolit yo'li geodezik punktlardan 0,9 km masofada geodezik punkt boshidan aloqa nuqtalar masofasi -0,6 km.ni tashkil qiladi;

- teodolit yo'li absolyut chegarasi -0,3 m;

Teodolit yo'li tomonlarini svetodalnomer va elektron taxeometr bilan o'lchanganda, uzunlik chegarasi 1,3 martaga ko'tarilib, 1,2 km.gacha bo'lishi mumkin.

Tomonlarning uzunlik chegarasi 1,2 km.dan, tomonlar soni bu holda 20 dan oshmasligi kerak.

Teodolit yo'li uzunlik chegarasi temiryo'l stansiyalarida stansiya sxemasi (park uzunligi) yordamida bajariladi. Syomka setlarini tekshirishni oddiy yo'l bilan yo'l sistemasi chalkashmasligi uchun 2-tartibda bajariladi.

Syomka setida burchak 0,1 gacha, koordinat 0,01 gacha olinadi. Syomka seti ishlari obyektida bajarilganda, burchak va tasmali o'lchovlar yer uchastkasi burilish chegaralarida nuqtalar seti maksimal ko'paytiriladi.

Natijada syomka seti qurishda quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- geodezik setlar bosh tayanch nuqtalar tekshiruv vedomosti;
- syomka sxemasi;
- doimiy nuqtalar syomkasi katalogi;
- burchak o'lchash va tasmalar jurnali;
- syomka setlarini tenglashtirish, koordinat nuqtalarini hisoblash vedomostlari;
- uzoq muddatga saqlanadigan nuqtalarning saqlanishi dalolatnomalarini tekshirish;
- uzoq muddatga berkitilgan nuqtalar koordinat katalogi;

Eslatma: Geodezik bajarilgan ishlar natijalari raspechatka qilingan holda yoki odatdagicha informatsiya berish yo'li bilan topshiriladi.

2-bob. Shaxar xududining navbatchi kadastr xaritasini yaratish.

2.1. Xududning kadastr syomkasini bajarish.

Territorialarni syomka qilish.

Yer uchastkalarida kadastr syomka ishlarini bajarishda tayyorgarlik ishlari va topografik ishlar, kadastr hujjatlar va olingan, to'plangan materiallarni ishlab chiqishga katta yordam beradi, shu bilan birga:

- joylarda yer uchastkalarini o'rganish;
- yer uchastka chegaralarini yangilash (proyekt va faktli);
- yer, uchastka, chegara, burilish nuqtalarini markirovka qilish;

-syomka holatini o'rganish.

Yer uchastka natural holatini o'rganish, uchastka chegarasini aniqlash uchun obyekt syomkalari ro'yxatini aniqlash ishlari, ularning huquqiy hujjatlari to'g'riligini, tranzit va boshqa injenerlik kommunikasiyalarini o'rganish, xususiy yoki umumiy servitut zonalarini aniqlash va hokazolar syomka ishlarini boshlashdan oldin bajariladi.

Yer uchastkasiga berilgan huquqiy hujjatlar, chegaralar (uchastka genplaniga, yer uchastka otvod materiallari va hokazo) joylarda o'lchash ishlari qattiq kontur (kapital binolar burchaklari) yordamida bajariladi. Yer uchastkalari natural chegara projeklari ishlab chiqiladi, agar bu holatlar yer uchastka otvod materiallarida ko'rsatilgan yoki kvartal qizil chizig'iga to'g'ri kelsa. Yer uchastka chegaralarini aniqlash (qayta tuzish) uslublari batafsil "Aholi punktlari yer uchastka chegaralarini aniqlash (qayta tuzish) " qo'llanmasida yaqqol ko'rsatilgan.

Buyurtmachi talabiga ko'ra OMZ bo'yicha, yer uchastka chegaralari uzoq muddatga saqlanadigan belgilar bilan ta'minlanishi mumkin.

Joylarda yerdan foydalanish chegaralarini aniqlash maqsadi yer uchastkalarga berilgan hujjatlarning soxta emasligini yoki yerga berilgan otvod materiallarining to'g'riligini aniqlashdir.

Yer uchastka chegarasi fasad tomonidan kvartalga tortilgan qizil chiziq, aralash yer uchastkalarda devor o'qi hisoblanadi.

Yer uchastka chegara burilish nuqtalar markirovkasi uchastka chegarasini joylarda borligini aniqlaydi.

Agar chegara burilish nuqtalari (mejevoy belgilar) geodezik yo'l syomkada aniqlab berish iloji bo'lmagan taqdirda, quyidagi xolatlarning biridan foydalanish mumkin:

-geodezik asosdan kamida uch nuqtadan chiziq tortiladi;

-geodezik asosdan burchakka kamida uch nuqtadan chiziq tortiladi;

-geodezik asosdan ikki punktdan tasmali burchak (polyarli) chiziladi;

-teodolit yo'l tomonlarida bo'lgan qo'shimcha qurilish (stvor nuqtalar aniqlanadi, kamida ikki tomonga osma yo'l qo'yiladi, polyarli usuli bilan), lekin uchastka burilish chegarasi ikki burchak nuqtasiga tomonlar to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi.

Tasmalar o'rtasidagi farq koordinatadan olingan o'lchovdan 0,1 m dan oshmasligi kerak. Aks holda, topilgan xato tezda bartaraf qilinishi kerak. Ko'p hollarda, chegara to'g'ri bo'laklarida qo'shimcha nuqtalar 50-80 m. o'rnatiladi.

Chegara bo'laklari to'g'ri bo'lmagan holda o'tgan nuqtadan burilgan joygacha 0,25 m.gacha nuqta belgilanadi.

Chegara burilish nuqtasida koordinatalanganda, albatta, uchastka chegara nuqtalarining barchasi qattiq kontur bilan (bino burchaklari, inshootlarga) mos bo'lishi kerak.

Uchastka chegarasi, qurilish tasmasi ma'qul bo'lmagan joydan o'tgan holda, ular tekislanib, qattiq konturlarga ulanadi.

Yer uchastka chegarasi burilish nuqtalari o'rnini aniqlash mumkin bo'lmagan holda, geodezik qurilish sababli, u tasmani zasechkalar bilan kamida uchta qattiq konturga ulanib, koordinatdan olingan analitik yo'li bilan yoki syomka materiallaridan foydalaniladi. Shu holda koordinat ikki nuqtasi ketma-ket aniqlanadi. Har qanday holda, yer uchastka chegarasi burilish nuqtalari holati ikki bor konturga olinadi, ya'ni tasmali va burchak zasechkalar ikki variant, usulda bajariladi. Yer uchastka tomonlari uzunligini o'lchashda doimo qo'llaniladi. Kontrol o'lchov natijalari alohida vedomostlarda ko'rsatiladi va yer uchastka maydoniga baho beriladi.

Yer uchastkasi chegara burilish koordinat nuqtalari sputnikli geodezik o'lchov, geodezik va fotogrammetrik uslubi, ayrim hollarda, chegara burilish alohida

nuqtalari (ketma-ket ikki nuqtagacha), qattiq konturdan o'lchash qo'llanmaning p.4.3.5. asosida olib boriladi.

Yer uchastkasi chegarasi aniq bo'lmagan holda, kadastr planida chegara proyeksi, vedomostda yer uchastka chegara burilish koordinat nuqtasi proyeksi ko'rsatiladi, masalan, uchastka chegara nuqtasi kvartalga qizil chiziq bilan belgilanadi. Topograf-geodezik ishlar elektron taxeometr bilan bajarilganda, syomkani rivojlantirish, yer uchastka chegara burilish nuqtalarini koordinatsiyalash, kadastr syomka bilan birga, doimiy nuqtalarni kompleks ravishda bajarishga ruxsat beriladi.

Yer uchastkasidagi holatni syomka qilish "SniP.11-104-97 gorizental syomka ishlarini territoriyada 1:500 masshtabli bajarish ruxsatnomasi"ga asosan olib boradi.

Qurilish maydonida gorizental syomka ishlarini olib borish quyidagi uslublarda bajariladi: geodezik zasechka, polyarli yoki kombinirovanniy. Syomka uslublari maqsadi - yer uchastka planlaridan raqamli ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Barcha uslublarda abrislar tuziladi, bino-inshoot o'lchov ishlari bajariladi va o'zaro kontrol o'lchovlar olib boriladi. Burchakli va tasmali o'lchovlardan foydalanilganda, ularning uzunligi 50m.dan oshmasligi kerak, aniqlik burchaklari 25° - 155° atrofida bo'lishi kerak. Syomka qutbiy uslubda bajarilganda kuzatish uzunligi:

- elektron taxeometrda – 250 metr;
- ruletkada – 120 metr;
- optik dalnomerda – 80 metr;

Qattiq konturlar nuqtalarni ipli dalnomer bilan syomka qilish man etiladi.

Gorizental burchaklar teodolit yarim priyomi bilan o'lchanadi va aniqligi 1° gacha yoziladi.

Syomka vaqtida quyidagilar koordinatlashtiriladi:

- yer tagi kommunikasiyalarning chiqishi;
- obyektidagi qayd qilingan kapital, bino-inshootlar burchaklari;
- qurilish qattiq kontur tasmlari, kvartal qizil chiziqlari o'rnatiladigan holat.

Yer uchastka gorizontal syomka ishlari natijalari quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

- abris va syomka jurnallari, bino o'lchov kontrol materiallari;
- yer uchastkasi kadastr plani haqiqiy nusxasi;
- yer uchastkasi chegara chertyoji;
- yer uchastkasi chegara burilish koordinat nuqtasi vedomosti hisobi, yer osti kommunikasiya chiqish nuqtalari, inshoot qayd qilish kapital burchaklari;
- yer uchastka maydoni hisoboti, aniq baholash vedomosti;
- yer eksplikatsiyasi va maydon konturi hisobot vedomosti;
- yer uchastkasi chegarasi burilish nuqtasi katalog koordinati;
- burilish nuqta koordinat katalogi va yer osti kommunikasiya chiqishi: turlar bo'yicha (vodoprovod, kanalizatsiya va boshqalar), obyekt bo'yicha;
- ko'chmas mulk qayd qilinadigan burchaklari koordinat katalogi.

Muxandislik kommunikatsiyalari syomkasi.

Muxandislik kommunikasiya planini tuzish maqsadi, maydon ichida joylashgan injenerli kommunikasiya syomka ishlari yer uchastka yuridik va jismoniy foydalanuvchi shaxslarning qo'shimcha buyurtmasiga asosan bajariladi.

Maydon ichki injenerlik kommunikasiya obyektini syomkasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- yer osti va yer usti injenerlik kommunikatsiyalari;

- unda bo'lgan inshootlar (quduqlar, kameralar, o'tuvchi va o'tib bo'lmaydigan kanallar.

Injenerlik kommunikasiya syomkalar (IPK) SniP talabiga 1.02.07-87 p.p 2.273-2.292 asosan bajariladi [8].

IPK syomka kompleksiga quyidagilar kiradi:

- mavjud bo'lgan syomka (chizmalar) materiallarini yig'ish va analiz qilish;
- quduq ichida joylashgan inshootlarni o'rganish;
- IPK burilish nuqtalarini planga va balandligiga bog'lash va yer osti inshootlarining yuqoriga chiqishini belgilash;
- IPK ni nivelirlash;
- yer yuzasiga chiqish iloji bo'lmagan IPK syomkasi va izlash;
- injenerlik kommunikasiya planini tuzish va ekspluatasiya qiladigan tashkilotlar bilan uning to'liq bajarilganligini kelishish;

Dala ishlari boshlashdan oldin quyidagilar jamlanadi:

- injenerlik kommunikasiya bo'yicha projekt materiallari;
- proyektda ko'rsatilgan gruntlar haqida ma'lumot;
- proyektda ko'rsatilgan grunt suvlari sathi haqida ma'lumot;
- bajarilgan syomkalar (chizmalar);
- qurilish IPK boshlangan vaqt (yil, kvartal);

Yer osti inshootlari tekshirishlarida o'rganiladi:

- prokladkalar vazifasi;
- ventil turlari (zapor armatury);
- truba diametri va materiali;

- material va kanal turlari;
- kabellar soni (kanalizasiya kabellari uchun trubalar);
- o'zaro trubalar suv yo'nalishi;
- quduqlar yo'nalishi;
- binoga kiritilgan yo'nalishlar;
- injenerlik kommunikasiya sxemasi.

Yer osti inshootlari va IPK burilish nuqtalari RTP talabiga asosan, planda ko'rsatilgan chiqish nuqtalari bilan bog'lanadi.

Yer osti inshootlarini nivelirlash quyidagicha:

- cho'yan quduq usti balandligini aniqlash (obechayek);
- quduq atofidagi yer;
- quduq ichidagi truba, kabellar, kanallar, balandligini aniqlash (cho'yan quduq (obechayek)dan o'lchanadi 1sm.gacha);

Quduqlarda (kameralarda) nivelirlashga quyidagilar:

- kanalizasiya setida – lotok chuqurligi;
- perekadli quduqlarda trubaga kirish va chiqish tagi;
- tinish quduqlarda – quduq tagi, trubaga kirish tagi;
- naporli truboprovodlarda – truba usti;
- kanal va kollektorlarda – kanal usti va osti;
- kabelli setlarda – quduq devori kabellar kesishgan joy yuqorisi va piket tagi (blok) kabel kanalizatsiyasida.

Burilish nuqtalarning joylashishi va boshqa ko'rinmas nuqtalar yer osti inshootlar chuqurligida trubokabeloiskatel asbobi yordamida aniqlanadi.

IPK nuqtalari trubokabeloiskatel bilan to'g'ri tasmasi uchastkalarda har 20 m belgilanadi.

Burilish nuqtalarida chuqurlikda joylashgan prokladkalar relyefi keskin burilishda har 50m.da belgilanadi.

Prokladka qo'yilgan chuqurlik trubokabeloiskatel yordamida ikki marta bajariladi. IPK chuqurligida joylashgan farqi natijasi 15%dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Yer osti va yer usti inshootlarida injenerlik kommunikasiya plani quyidagilarni e'tiborga oladi:

- yer uchastka topografik plani yoki yer uchastka chegarasi chertyoji, chizmasi bilan birgalikda;
- yer osti va usti inshootlar plani alohida, birgalikda;
- yer osti va yer usti inshootlar alohida plani, ularning guruhleri va boshqalar.

Injenerlik kommunikasiya syomkalari natijasi quyidagilardan iborat:

- yer osti va yer usti inshootlari (uchastka kadastr syomka jurnali), quduqlarni tekshirish jurnallari;
- texnik nivelirlash jurnallari; yer osti inshootlari abrislari;
- yer osti va yer usti inshootlari planlari, ekspluatasiyaga qabul qilgan tashkilotlar bilan kelishgan holda;
- katalog (vedomost) koordinatalari, yer osti va yer usti inshootlaridan chiqish joylari va IPK burilish burchaklari;
- agressiv gruntlar va gruntlarda suv sathi;
- qurilish boshlangan sana IPK (yil, kvartal)

Yer uchastkasi kadastr planining asl nusxasini tuzish.

Yer uchastkasi kadastr plani 1-jadvalda berilgan masshtablar bo'yicha tuziladi, masshtab uchastka kattaligiga va plandagi zichlikka bog'liq bo'ladi.

Yer uchastkasi kadastr plani informatsiya – ma'lumot olib boruvchi (qog'oz, plastik), raqamlar (elektron raqamli xaritalar), (agar u normativ hujjatlar va buyurtmachi topshirig'i bo'yicha bajariladigan bo'lsa) dan iborat bo'ladi.

Haqiqiy plan nusxasi chizmachilikda qo'llaniladigan qalin qog'ozda, lavsan plenka yoki fotoplenda "Masshtabi 1:5000-500 topografik planlar shartli belgilari" (1989 y.) asosida tuziladi.

Yer uchastkasi kadastr planiga koordinatalar maksimal aniqlikda kiritiladi:

- yer uchastka chegara burilish nuqtasi;
- bino va inshootlar burchaklari;
- yer osti kommunikatsiyalari chiqish joylari;

Yer uchastka kadastr planida quyidagilar ko'rsatiladi:

- geoaxborotlar (yer uchastka chegara burilish nuqtalar o'rtasidagi tasma uzunligi va ularning direksion burchaklari);
- shartli belgilar;
- kartum (manzil taxminan) ;
- yer uchastka syomka sanasi;
- plan masshtabi;
- maydon va kadastr raqami;
- yer eksplikasiyasi (kadastr kitobiga yer uchastka chegarasi chizmasi kiritilishi mumkin) ;
- yer uchastka izohi;
- aralash binolar (smejestv) izohi (manzil, nomi, aralash binolar kadastr raqami);
- himoyalaniş zonasi, servitut zonasi;
- servitut haqida ma'lumotlar, huquqlar cheklangan hollar;
- joylarda chegara burilish nuqtalari, belgilanmagan, yer uchastka chegaralari (tabiiy yoki yasama holatda relyef bo'lganda);
- chegara tasmalari;
- ichki chegara(begonalar uchun tashqi hisoblangan);

Yer uchastka chegaralari texnik va yuridik tasdiqlangan materiallar asosida belgilanadi. Agar yer uchastka chegarasi tasmali elementlardan (yo'l, devorlar, kanallar va boshqalar) bo'lgan holda, ular kadastr planiga natural holatda kiritiladi.

Kadastr planlarida bino-inshootlar (turar, noturar), qavatli, fizik holati (qurilish, buzilgan) ko'rsatiladi.

Balandligi 0,25 m arxitektura qurilishlar va ularning elementlari, podyezdlar syomka qilinadi. Vaqtincha qurilmalar syomka qilinmaydi.

Alohida joylashgan bino-inshootlar, ular egallab turgan maydonlardan tashqari, xizmat ko'rsatish zonadari, podyezd yo'llari ko'rsatiladi.

IPK syomka materiallari yoki ekspluatasiyaga qabul qilgan tashkilot kelishuv materiallari, injenerlik yer osti kommunikatsiyalar (tiqilinch joylashgan holda, IPK plani alohida tuziladi) yer uchastka kadastr planiga kiritiladi. Sug'orish va kollektor kengligi uning poyidan, kanal ichi yo'li suv oqimini ko'rsatuvchi strelka bilan belgilanadi. Hidrografiya elementlari va gidrotexnik inshootlar syomkalari haqiqiy o'lchovlari kadastr planiga yuridik va texnik hujjatlar asosida kiritiladi.

Yer uchastkasi chegarasida joylashgan qishloq xo'jalik dalalari (shudgor, ko'p yillik ko'chatlar, teplisalar va boshqalar), kadastr planlarida joylashishi shartli belgilar yordamida belgilanib, kerakli yozuvlar bilan izohlanadi, shu bilan birga, qishloq xo'jaligida foydalanmay qolgan dalalar va boshqalar belgilanadi.

Dala geodezik ishlarini tekshirish.

Dala kadastr topografiya-geodeziya ishlari barcha bosqichlarda olib boriladi va o'z oldiga bajarilgan ishlarning talabga ko'ra sifatli bo'lishi, texnologiya, texnik vazifa programmaga asosan talab qilinadi. Ish hajmi katta bo'lmagan (bir oydan kam) tekshiruv bilan birga ishni qabul qilish yakuni ham bo'lishi mumkin. Tekshiruv davrida dalalarni instrumental tekshirish, analitik kontrol, dala texnik hujjatlarini ko'rib chiqish, dala texnik kuzatuv ishlari bajariladi.

Ish jarayonini tekshirishda tekshiruvchi quyidagilarga e'tiborni ajratishi kerak:

- instruksiya talabi uslublari, ko'rsatmalar, qo'llanmalar, qo'shimcha texnik sharoitlar va texnik vazifalar;

- dala texnik hujjatlarini rasmiylashtirish talablari, instruksiyaga binoan texnologik ruxsatnomalar (ish mobaynida va ish tugaganda) ;
- asboblarning holati: o'z vaqtida va to'liq yustirovka va ta'mir ishlari muddati;
- joylarda yer uchastka chegaralarni aniqligi , qayta qilingan chegaralar, chegara kelishuv dalolatnomalari, ularni to'liq va aniq izohlari;
- yer uchastka maydonini aniq hisoblash davrida yo'l qo'yilgan xatoliklar.

Dala kontrol ishlari dalolatnoma tuzish bilan yakunlanadi. Dalolatnomada tekshirish natijalari, bajarilgan ishlarni hajmi har bir soha bo'yicha, bundan tashqari, dalolatnomada kamchiliklar va ish bajarishda takliflar beriladi.

Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi va tomonlarga beriladi (tekshiruvchi va tekshirilgan).

Dala ishlarini qabul qilish.

Topshiriq bajarilgandan keyin (yoki bir qismi) bajaruvchi ishni qabul qilishga topshiradi.

Qabul qilish materiallari dala ishlarining bajarilganligi (instruksiya va texnik materiallar talabiga asosan) komplektlashtirilgan holda topshiriladi.

Ishni qabul qilish jarayoni tekshiruvchi ketib qolmasdan oldin amalga oshiriladi.

Sifatsiz tayyorlangan va komplektlashtirilmagan hisobotlar qabul qilinmaydi.

Topshirilgan hisobot texnik talabiga javob berishi, sifatli bo'lishiga qarab baholanadi.

Yer uchastkasi koordinatalari va maydonini hisoblash.

Yer uchastkasi maydoni analitik usul bilan hisoblanadi. Yer uchastka maydoni chegara burilish nuqtasidan koordinat nuqtasiga 1 kv.m.da ikki bor formulada tekshirib bajariladi:

$$P = 0.5 \sum_{i=1}^n X(Y_{i+1} - Y_{i-1}) \quad P = 0.5 \sum_{i=1}^n Y(X_{i+1} - X_{i-1})$$

(2.1.4)

P – yer uchastka maydoni m²;

X_i, Y_i – chegara burilish koordinat nuqtalari va chegara burilish nuqtalar soni;

Yer uchastka maydonini hisoblash vedomosti tuziladi. Uchastka maydoni aniqlash bahosi kv.m, sotix yoki gektarda, аренда to'lash stavkasi yer uchastka maydoni Δ PDOP aniqlanganda hisoblashda ruxsat berilgan xatolik e'tiborga olgan holda beriladi.

Yuridik shaxslar uchun yer uchastka maydoni 0,50 ga.dan ortiq bo'lsa, aniqlik 0,01 ga, yer uchastka maydoni 0,50 ga.gacha bo'lsa kvadrat metrlar hisobga olinadi.

Fuqarolarga xususiy qurilish uchun shahar va tumanlarda ajratilgan yer uchastkalarda kvadrat metr, qishloq joylarda xo'jalik ishlarini olib borish hisobga olinib, kvadrat metr aniqligi 0,01 ga (100 kv.m). Umumiy sharoitda oxirgi raqamlar kafolatli bo'lib hisoblanadi.

Formula asosida o'rtacha kvadrat yer uchastka maydoni aniqligi (Tβ) xatolik yarmiga, ya'ni ΔPDOP = 2mm ga teng:

$$m_p = m_{v \text{ umum}} \sqrt{P} \sqrt{\frac{1 + K^2}{2K}}$$

(2.1.5)

m_{v umum} – o'rtacha kvadrat xato yer uchastka chegara burilish nuqta koordinat aniqligi;

P – uchastka maydoni kv.m.da;

K – cho'zilish koeffitsiyenti. Uzunlik va balandlik, doimo katta yoki teng 1.

Dyakov B.N. joylarda uchastka maydonlarni aniqlashda

$$\frac{m_p}{P} = \frac{K_{m1}}{L} \tag{2.1.6}$$

dan foydalangan.

Bundan chiqqan holda,

$$m_p = \frac{PK_{m2}}{L}, \quad K = 2\sqrt{2} \sin\left(\frac{180^\circ}{n}\right) \tag{2.1.7}$$

L-perimetr uzunligi;

n – burilish burchaklar soni;

Chegara burilish nuqtalar koordinati holatini aniqlash o'rtacha kvadrat xatolik quyidagi formulada hisoblanadi:

$$m_{\text{vyymym}} = \sqrt{\frac{m_{i-1}^2 + m_{i-2}^2 + \dots + m_{i-n}^2}{n}} \tag{2.1.8}$$

Bu yerda: m_{i-n} – syomkasi aniqlangan nuqtaning uchastka chegarasi burilish nuqtasining koordinat holati o'rtacha kvadrat xatoligi.

Uchastka chegara burilish yo'li syomkada izohlanganda quyidagi formulada aniqlanadi:

$$m_i = \sqrt{(\Delta\varphi\Delta x)^2 + (\Delta\varphi\Delta y)^2} \tag{2.1.9}$$

Bu yerda: $\Delta\varphi\Delta x$, $\Delta\varphi\Delta y$ – koordinat o'stirish, to'g'irlash, aloqa o'rnatilganda syomka yo'lini (yo'nalish yo'li bo'yicha) aniqlash.

Uchastka chegarasi burilish nuqtalari koordinatlarini qutbiy usulda aniqlash formulasi:

$$m_i = \sqrt{m_s^2 + \left(\frac{m_\beta}{\rho}\right)^2} \quad (2.1.10)$$

Bu yerda:

m_s – tasma o'lchangandagi o'rtacha kvadrat xatolik;

m_β – yo'nalish aniqlanganda o'rtacha kvadrat xatolik, instrumental xatolik;

Bundan kelib chiqib: m_s – tasma o'lchovi o'rtacha kvadrat xatoga teng:

$$m_s = \sqrt{\frac{[qq]^2}{n-1}} \quad (2.1.11)$$

Bu yerda:

$q = S_{cp} - S_{izm}$, $[q]$ – o'rtacha arifmetik holat summasi ikki o'lchamda topilgan tenglik;

q – egilish kattaligi ahamiyati o'rtacha arifmetik holat;

S_{ip} – uzunlik (metr hisobida) o'rtacha arifmetik holati;

S_{izm} – o'lchangan uzunlik holati yoki geodezik zasechkalardan biri;

n – uzunlikni o'lchash variantlar soni,

$\rho = 3438'$

m_β – o'rtacha kvadrat xatolik (yo'nalish analogik aniqlanadi);

Uchastka chegara burilish nuqtalar koordinatalari burchak zasechkalari bilan aniqlanganda, m_i – punkt holati o'rtacha kvadrati quyidagiga teng:

$$m_i = \frac{m_a \sqrt{S_1^2 + S_2^2}}{P \cdot \sin(\alpha_1 - \alpha_2)} = \frac{m_a}{P \cdot \sin \gamma} \sqrt{S_1^2 + S_2^2}$$

(2.1.12)

Bu yerda:

m_a – direksion burchakni aniqlashda o'rtacha kvadrat xatolik;

S_1, S_2 – bosh punktdagi aniqlik punktigacha bo'lgan masofa;

$\alpha_{1,2}$ – aniqlik punktining direksion burchagi;

γ – aniqlanayotgan punktning burchagi;

Kadastr syomkasi materiallarini rasmiylashtirish.

Kadastr planidagi dalalar belgilanganda asosiy e'tiborni obyektlarning aniq tasvirlanganiga va shartli belgilar to'g'ri qo'yilganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Shartli belgilar dala sharoitida belgilanganda, oddiy usullardan foydalanish simmetrik holatda bo'lishiga uncha e'tibor berilmaydi. Shartli belgilar shakli, tartibi buzilmasligi, ammo yozuvlar va raqamlar aniq bo'lishi kerak. Rasm chizig'i qalinligi 0,2 – 0,3 mm atrofida, shartli belgilar, boshqa joy elementlari va o'zaro kesishmasligi kerak.

Yo'laklar, devorlar va joylarning boshqa tasmali elementlari uchastka chegarasida o'z joyida aniq ko'rsatilishi talab qilinadi.

Agar yer uchastkalari ikki yoki bir nechta aralash planda bo'lsa, ular ramkaga olinib ko'rsatiladi.

Yer uchastkasi kadastr planini rasmiylashtirishda:

- ramka chap tomon burchagiga viloyat, shahar, tuman nomi, koordinat va balandlik sistemasi;

- ramka shimol tomonida ish bajaruvchi tashkilot nomi, raqami yoki nomenklatura varag'i (plansheti) ;

- ramka burchagi shimoliy-sharqiy tomon ustiga o'ng tomoniga obyekt nomi;
- ramka burchagi janubiy-g'arbiy tomoni tagiga mansabi, F.I.Sh., imzo va syomka sanasi yoziladi;

Bo'sh qolgan joylarga:

- uchastka nomi;
- pochta manzili;
- kadastr raqami;
- yer uchastkasining umumiy maydoni;
- geoaxborot (uchastka chegara burilish nuqtalar orasi tasma uzunligi va ularning direksion burchaklari) ;
- shartli belgilar (legendy) ;
- yer eksplikasiyasi (yer uchastka chizmasi) ;
- uchastka chegaralari izohi;
- yer uchastka ichki chegarasi, begonalar uchun tashqi chegara belgilari;
- aralash joylashgan imoratlar izohi (manzili, nomi, kadastr raqami) ;
- himoya zonasi, servitut zonasi;
- servitutlar haqida ma'lumotlar, cheklangan huquqqa ega bo'lgan yerdan foydalanuvchilar (yer uchastka chegarasi chizmasida ko'rsatilishi mumkin) ;
- mejevoy belgi (kadastr ishi yer uchastka chegara chizmasida ko'rsatilishi mumkin) ;
- kadastr planiga ma'sul shaxslar imzolari, kelishilgan va tasdiqlangan xat;

Texnik hisobot

Yer uchastka kadastr syomkalarining material va hujjatlari texnik hisobotga tikilgan bo'lib, unda quyidagilar:

- ish hajmi va texnologiyasini izohlash tushunchasi, bajarish sanasi va boshqa sharoitlar;
- aholi punktlarida joylashgan yer uchastkalar sxemasi;
- yer uchastka chegaralari kelishilgan dalolatnoma nusxasi;
- uchastka syomka setiga bog'langan tayanch nuqtalar;

- geodezik seti koordinat katalog punktlari;
- dala o'lchov ishlari jurnallari, abrislar va boshqa kameral ishlab chiqilgan materiallar;
- tekshirish dalolatnomalari va ishni qabul qilish;
- ish (dala) plani – kartografik materiallari;
- yer uchastkasi chegarasi burilish nuqtalari, katalog koordinatlari, IPK chiqish joyi, bino inshoot burchaklari, doimiy syomka nuqtalari izohi (4-jadval);

4-jadval.

Ер участкаларининг координаталари.

Манзил

Фирдавсий кучасида жойлашган 17 – мактаб

Нукта №	Координаталар		□		S (м)	α Γ° М'
	x	y	Δx	Δy		
1	-783,333	2297,18 1	-12,30	6,83	14,07	150,58
2	-795,636	2290,35 2	-55,30	-2,18	55,34	182,16
3	-850,934	2292,53 4	-10,85	-41,96	43,34	255,30
4	-861,780	2334,49 4	-12,26	2,88	12,59	166,48
5	-874,037	2331,61 8	-5,40	-34,22	34,65	261,02
6	-879,434	2365,84 1	17,24	-2,39	17,40	352,07
7	-862,194	2368,22				

		7				
		-	-1,29	-9,31	9,40	262,07
8	-863,483	2377,53				
		9	19,32	-2,67	19,50	352,07
		-				
9	-844,167	2380,21				
		2	0,8	5,5	5,60	82,07
		-				
10	-843,399	2374,66				
		5	4,4	-1,1	4,57	346,00
		-				
11	-838,968	2375,76				
		9	9,2	-5,1	10,50	330,58
		-				
12	-829,788	2380,86				
		5	46,5	83,7	95,71	60,58
		-				
	-	28169,3				
	10127,15	0			322,7	

Периметр 322,67 м

Участка маркази $X_m = -843,93$ $Y_m = 2347,44$

- yer uchastka umumiy maydonini hisoblash vedomosti (5-jadval);

5-jadval.

Фирдавсий кучасида жойлашган 17 - мактаб

территориясини аналитик усулда юзасини аниқлаш

Ж А Д В А Л И

Нукта №	Координаталар		Айирмалар		Купайтмалар	
	$\pm X_i$	$\pm Y_i$	$X_{i-1} - X_{i+1}$	$Y_{i+1} - Y_{i-1}$	$Y_i(X_{i-1} - X_{i+1})$	$X_i(Y_{i+1} - Y_{i-1})$
1	- 783,33 3	- 2297,18 1	-34,2	90,5	78453,33	-

						70902,30
2	- 795,63 6	- 2290,35 2		67,6	4,6	- 154830,0 6 -3697,48
3	- 850,93 4	- 2292,53 4		66,1	-44,1	- 151638,2 9 37562,44
4	- 861,78 0	- 2334,49 4		23,1	-39,1	- 53932,42 33681,83
5	- 874,03 7	- 2331,61 8		17,7	-31,3	- 41162,15 27398,60
6	- 879,43 4	- 2365,84 1		-11,8	-36,6	28017,48 32195,56
7	- 862,19 4	- 2368,22 7		-16,0	-11,7	37777,25 10085,34
8	- 863,48 3	- 2377,53 9		-18,0	-12,0	42860,60 10348,49
9	- 844,16 7	- 2380,21 2		-20,1	2,9	47803,23 -2426,05
10	- 843,39 9	- 2374,66 5		-5,2	4,4	12344,46 -3747,22
11	- 838,96 8	- 2375,76 9		-13,6	-6,2	32336,59 5201,94
12	- 829,78 8	- 2380,86 5		-55,6	78,6	132459,9 1 - 65211,21

			174,50	181,0 7	412052,8 5	156474,2 0
			-174,50	- 181,0 7	- 401562,9 1	- 145984,2 6
					10489,94	10489,94
		S=	5244,97	$\frac{m^2}{=}$	0,524	ra

- chegara belgilariga ma'sul davlat kontrol dalolatnomasi;

- yer uchastka kadastr planining asl nusxasi. (2.1-rasm.)

Texnik hisobot nusxalar soni texnik vazifa bilan aniqlanadi: birinchi kadastr chizmasi arxivga, ikkinchi buyurtmachiga yuboriladi. Har qanday vaziyatda texnik hisobot bir nusxasi joylarda kadastr xizmati arxivida bo'lishi shart.

Kadastr syomka materiallarini ko'rib chiqish, kelishish va tasdiqlash.

Yer uchastkasi tayyorlangan kadastr plani albatta ko'rib chiqiladi, kelishiladi va tasdiqlanadi.

Kadastr plani va unga tegishli bo'lgan barcha texnik materiallar joylarda ko'chmas mulk va kadastr xizmati mutaxassisleri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Tasdiqlangan yer uchastka kadastr plani yer uchastkasi huquqiy hujjati bo'lib hisoblanadi.

Yer uchastkasi kadastr plani asl nusxasi kadastr ishida saqlanadi, nusxasi yer uchastka foydalanuvchisiga beriladi.

Materiallarni taqdim etish.

Yer uchastka kadastr plani ko'rsatilgan tartibda tasdiqlanib, quyidagi maqsadda:

- yer uchastkasi qayd qilish huquqiga;
- yerlarni hisobga kiritishda;
- iqtisodiy, tejamkorlik, ekologik va xo'jalik masalasi yer bilan bog'liq bo'lgan;
- yer monitoringiga;
- yer uchastkasi huquqiy tartibi o'zgarishiga;
- yerdan foydalanish kontroli va bahosi;
- yer uchastkasi kadastr planlari ko'chmas mulk va kadastr xizmati tomonidan talabga ko'ra bajariladi.

Yer uchastka kadastr plani yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yozma ravishda tushgan ariza, arizada talab qilinadigan ma'lumotlar ko'rsatiladi, maqsad va to'lov garantiyalari yoziladi.

Ma'lumot nusxa holatida yoki spravka sifatida beriladi.

Kadastr syomka materiallari yer uchastkasini ro'yxatdan o'tkazishda, kadastr kitobini tuzishda ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi joylardagi kadastr xizmati arxivida saqlanadi, ikkinchisi ko'chmas mulkdan foydalanuvchi shaxsga beriladi.

2.2. Kadastr navbatchi xaritasiga kiritiladigan ma'lumotlar bazasini yaratish.

Kadastr syomkasi hududning navbatchi xaritasiga kiritiladi (an'anaviy usulda yoki kompyuter dasturlari asosida raqamli xaritaga).

Navbatchi xarita - o'z mohiyati bo'yicha muhim hujjatlardan biri, bu tuman (shaxar) navbatchi xaritasidir, navbatchi xaritada xududdagi barcha yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning xududiy joylashuviga tasavvur beradi.

Kadastr plani - ko'chmas mulk obyektining o'rnatilgan joyini, chegaralarini, binolar, inshootlar va boshqa topografik elementlarini aks ettiruvchi, umumiy qabul qilingan shartli belgilarda tuzilgan chizma hujjat;

Kadastr syomkasi hujjatlarini tasdiqlash va kelishish.

Tayyorlangan yer uchastkasini kadastr plani ko'rib chiqilishi, kelishishi va tasdiqlanishi talab qilinadi.

Kadastr plani ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kadastr xizmati mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Kadastr planini ko'rib chiqish mobaynida, kadastr syomkasi topografik, kadastrrovik, yer tuzish normativ-texnik talablariga mosligi va texnik topshiriqlar talabi bajarilganligi tekshiriladi.

Kadastr syomkasini ko'rib chiqadigan shaxs, chegaralarni to'g'ri tushurilganligini va tansifini, kadastr syomkasining aniqligini va rasmiylashtirish normativ-texnik talablariga mosligiga ishonch xosil qilishi kerak. Natijasi bo'yicha kamchiliklar xaqida akt tuzadi, aktda kamchiliklarni bartaraf etish vaqti ko'rsatiladi.

Yer uchastkasini kadastr plani bajargan ma'sul shaxs imzolaydi va maxalliy davlat kadastr xizmati xodimi tomonidan tasdiqlanadi.

Mutaxassis kadastr syomkasini ko'rib chiqishi uchun xududning elektron raqamli navbatchi kartasiga ega bo'lishi kerak. Elektron raqamli navbatchi xarita turli dasturlar orqali amalga oshirish mumkin. Biz misolimizda PANORAMA va CREDO DAT dasturlari orqali amalga oshirish va tuzish ishlarini qisqacha berib o'tamiz.

Hududning kadastr syomka navbatchi xaritasini PANORAMA dasturida barpo qilish.

Ayni paytda yurtimizda geodeziya, kartografiya va kadastr va boshqa tegishli tashkilotlar bilan himoyalangan yagona elektron tizim asosida o'zaro kadastr ma'lumotlari almashuvi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda bazaviy dasturiy ta'minot sifatida ArcGIS va "PANORAMA" dasturlari, ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish uchun esa O'zbek Land Register 2.2. litsenzion dasturiy ta'minoti yaratilgan. Ushbu dasturlar orqali har bir tuman va shahardagi kadastr bilan bog'liq jarayonni kuzatib borish mumkin.

Ma'lumki, yer tuzish va yer kadastr ishlarini bajarishda foydalanilayotgan plan va xaritalarda tasvirlangan joyning tez o'zgarishi ularni mazmuni doimiy ravishda yangilab turishini talab qiladi. Ayrim hududlarda syomka ishlari bir-ikki yil oldin bajarilgan bo'lsa xam ularni yangilashga to'g'ri keladi.

Panorama elektron xaritalar ma'lumotlar ba'zasini boshqarish funksiyasini bajaruvchi, dasturiy komponent. Ushbu komponentni qo'llash turli geoinformasion masalalarni yechuvchi, dasturiy ta'minotlarni tez tayyorlash imkonini beradi.

Shu xususdan Panorama dasturi – hozirgi vaqtda asosan qishloq xo'jaligi elektron xaritalarini yaratishda va kadastr navbatchi xaritalarini barpo qilishda ishlatiladigan dastur bo'lib, keng miqyosda ishlab chiqilgan. Bu dastur elektron raqamli xaritalarni tuzishda foydalaniladigan dasturlardan biridir. Bu dastur orqali bir formatdan ikkinchi bir formatga o'tkazishda ham qo'llaniladi.

Kadastr navbatchi xaritasini yaratish uchun Kattaqo'rgon tumani Payshanba shaxri Charog'on maxallasida joylashgan fuqarolarga tegishli tomarqa uchastkalarini inventarizatsiya qilish natijalaridan foydalanildi, unda navbatchi xarita yaratish manbasi sifatida quyidagi ma'lumotlardan foydalanildi: (ma'lumotlar ilovada keltiriladi):

- Yer uchastka egalarining familiyasi, ismi sharifi- 613 ta yerdan foydalanuvchi;
- Xar bir yerdan foydalanuvchining KFY kitobidagi qayd raqami;

- Xar bir yerdan foydalanuvchining umumiy yer maydoni, ga xisobida;

Shundan:

-Ekin yerlari;

-Bino inshootlar qurilish osti maydoni;

-Ko'p yillik daraxtlar;


-Boshqa yerlar.

Ushbu navbatchi xaritada ma'lumotlardan birontasi o'zgarsa, masalan, yerdan foydalanuvchi uy joyini to'liq yoki qisman boshqa fuqaroga sotsa, yerdan foydalanish maqsadi o'zgarsa (uy joy, tegishli ruxsatnoma asosida noturar joyga – oshxonaga o'zgartirilsa yoki boshqa xolatlarda) navbatchi xaritaga quyidagicha o'zgartirishlar kiritiladi:

- Yer uchastkasining chegarasi o'zgartiriladi (uy-joy qisman sotilganda), yangi yer uchastkasiga yangi kadastr raqami beriladi va ma'lumotlar bazasiga yangi yer uchastka egasi nomi kiritiladi;

- Yerdan foydalanuvchi uy joyini to'liq sotsa yoki mulkchilik shakli o'zgarsa (xususiy mulkchilikdan jamoa mulkchiligiga, MChJga) ma'lumotlar bazasidagi eski yer egasining nomi o'chirilib, qayta qayd qilinadi, bu xolatda kadastr raqami o'zgartirilmaydi;

-Yer uchastkasi yoki bino inshootning foydalanish maqsadi o'zgartarganda, ma'lumotlar bazasiga qayta qayd qilinadi, bu xolatda kadastr raqami o'zgartirilmaydi;



2.2-rasm. Kattaqo'rg'on tumani Payshanba shaxri Charog'on maxallasidagi tomarqa uchastkalarining kadastr navbatchi xaritasi

Elektron kadastr navbatchi kartalar tizimi - bu turli xildagi va masshtabdagi raqamli xaritalarning alohida nomenklatura varaqlaridan, belgilangan hudud uchun elektron xaritalar tashkil eta oladigan dasturiy majmua va bu xaritalarni monitor

ekranida tasvirlash vositalariga ega. Shu bilan birga, majmua o'z ichida rivojlangan dasturiy interfeysga ega bo'lib, uning yordamida foydalanuvchilarning amaliy vazifalari elektron xaritalar bilan o'zaro ta'sir o'tkazib, obyektlarni qidirish, yangi obyektlarni qurish, shu jumladan, xarita bo'lmaganlarini ham, berilgan hududni kerakli masshtabda qismla-qism ko'rish, masalalar yechimini bajarish uchun obyektlarning metrik va semantik tasniflarini tanlashni amalga oshirish kabi imkoniyatlarga ega.

Elektron xaritalar tizimi dasturiy ta'minoti Windows 95, Drag va Drop muhitini qo'llaydi, bu esa boshqarishni soddaligini va bir vaqtning o'zida bir nechta turdagi ma'lumotlar bilan ishlaydigan foydalanuvchiga ishlashga qulaylik tug'diradi.

Elektron xaritalarning alohida qismlari, keyinchalik istalgan amaliy masalalarda ko'rgazma material sifatida foydalanish uchun Windows tizimining metafayllari sifatida saqlanishi mumkin.

Elektron xaritalarning displeydagi ko'rinishi ko'p qavatli bo'lib, u rastr xaritalar va fotomateriallar, hududdagi vektor jismlarning, hududning turli xususiyatlarini matritsali ko'rinishlarini (balandliklar matritsasi, hududlarning xarfli uchastkalari matrisasi va h.k.) va Windows interfeysi vositalari yordamida kiritilgan foydalanuvchilar ma'lumotlarini qo'shish orqali yaratilishi mumkin.

Vektorli elektron xaritalar jismlarni ODBC va IAPI elektron xaritalar tizimining asosida dinamik bibliotekalar majmuiga o'xshatib qurilgan va bu amaliy masalalarga elektron xaritalarga murojaat qilish, tasvirlash va boshqarish funksiyalarini o'rnatish imkoniyatini yaratadi.

Panorama 97 dasturiy komponentning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Ish hududi, xaritalar varag'i, jismlar qatlamlari, hududidagi jismlarning elektron xarita ma'lumotlar ba'zasining iyerarxik tuzilmasini yaratish;
- Foydalanuvchilarning grafik interfeysi: yangi pog'ona yaratish; o'chirish, yangilash, ko'chirish, tiklash yordamida ma'lumotlar ichidagilarni tahrirlash;

- Turli xil proyeksiyalar va koordinatalar sistemalarini qo'llab quvvatlash;
- Ma'lumotlar bazasi ichidagilarini topografik, sharxli-geografik, kadastr va boshqa turdagi har xil ishlar uchun qabul qilingan shartli belgilarda tasvirlash;
- Ta'sirni tezda ko'rib chiqish, aks ettirilgan tasvirlar tarkibini o'zgartirish;
- Tashqi chop etish qurilmalarga qabul qilingan shartli belgilarda elektron xaritalar ta'sirini chiqarish;
- Rangli va oq-qora, vektor va rastr chop etish qurilmalarini qo'llash jismlar tarkibini va xaritalar masshtabini o'zgartirishi mumkin, chop etish uchun chiqarilayotgan tasvir WISIWYG muhitida o'zgarishi mumkin;
- Roskartografiya VTS MORF va federal xizmatlar talablariga mos tarzda, standartlashtirilgan klassifikasiya tizimi va jismlarni kodlashtirish va ularning xarakteristikalarini qo'llash;
- Foydalanuvchilarning shartli belgilari, qatlamlari va ularni tavsiflarini qo'llash;
- Shartli belgilarni tasvirlash uchun GDI da ishlatilmaydigan grafik jihatdan sodda Windows tizimlari qo'llanilishi mumkin (istalgan qalinlik bilan va uzunlikdagi punktr chiziqlar 8x8 hajmdan katta bo'lgan nuqtali shartli belgilar bilan maydonli jismni to'ldirish va h.k) va shu shartli belgilarni chop etish moslamalariga aniq va yuqori tezlikda chiqarilishi ta'minlanadi;
- Belgilangan tavsifga ega jismlarning qidirish so'rovlarini amalga oshirish;
- Hisoblash jarayonini amalga oshirish(maydonni aniqlash, uzunlikni, perimetrni, yo'nalishni va h.k);
- Jismlar topologiyasi bo'yicha ma'lumotli so'rovlarni bajarish, kesishish, tutashish nuqtalarini topish;
- Jismlar atrofida zonalar qurish, jismlar kesishini tuzish, elektron xarita aksida so'rovlarni bajarish natijalarini aks ettirish;
- Elektron xarita ma'lumotlari bazasining iyerarxik tuzilmasini psevdorelyatsion tuzilmasi shaklida aks ettirish;

- Tashqi relyasion ma'lumotlar bazasini mantiqiy imkoniyatini ta'minlash uchun elektron xarita ma'lumotlar bazasi iyerarxik tuzilmasini, o'zaro aloqador va yozuvlarida kalitli maydonlarga ega jadvallarni o'z ichiga oluvchi, psevdorelyasion tuzilma shaklida tasvirlash. Bunda klient-server, SQL-so'rov va shularga o'xshash arxitekturalardan foydalanish mumkin;

- Elektron xarita ma'lumotlar bazasi jadvalning yozuvi sifatida esa varaq, qatlam, jismning tavsifi va hokazo bo'lish mumkin;

- Hudud to'g'risidagi vektorli, rastrli va matrisali ma'lumotlarni birgalikda qayta ishlash;

- Rastr-vektorli elektron xaritalarni yaratish, ularni aks ettirish;

- Jismga mo'jalgan tillar (S++) shuningdek, Pascal, Basic tillarning dasturiy interfeysni ta'minlash;

- Visual Fox Pro 3.0 ma'lumotlar bazasining boshqarish tizimining buyruqlari darajasida dasturlash interfeysini ta'minlash;

- Komponent lokal OLE – server shaklida ishlatish;

- Panorama - 97 dasturiy komponenti, Windows NT tizimlarida bajarilishga mo'ljallangan, dinamik kutubxonalar majmuasi (DLL) shaklida yetkazib beriladi. Borlang C++ 4.52 translyatori yordamida va Visual C++ 4.0 yordamida yig'iladi. Kutubxonalarni boshqa platformalarga ham ko'chirish mumkin;

- Tashqi relyasion ma'lumotlar bazasini mantiqiy imkoniyatini ta'minlash uchun, elektron xarita ma'lumotlar bazasi iyerarxik tuzilmasini o'zaro aloqador va yozuvlarida kalitli maydonlarga ega jadvallarni o'z ichiga oluvchi psevdorelyasion tuzilma shaklida tasvirlash. Bunda klient-server SQL-so'rov va shularga o'xshash arxitekturalardan foydalanish mumkin;

- Elektron xarita ma'lumotlar bazasi jadvallarining yozuvi sifatida esa: varaq, qatlam, jismning tavsifi va hokazo bo'lish mumkin;

- Hudud to'g'risidagi vektorli, rastrli va matrisali ma'lumotlarni birgalikda qayta ishlash. Rastr-vektorli elektron xaritalarni yaratish, ularni aks ettirish va chop etish (har biri ixtiyoriy chegarasiga ega rastrning shaklini o'zgartirgan

(transformlashgan) qismlari, bosqichma-bosqich vektorli jismlar bilan to'ldiruvchi, yaxlit ajralmas sifatida aks ettiriladi va qayta ishlanadi);

- Jismga mo'ljallangan tillar (S++), shuningdek, Paskal, Basic tillarining dasturiy interfeysini ta'minlash, Visual Fox Pro 3.0 ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining buyruqlari darajasida dasturlash interfeysini ta'minlash;
- Komponentni lokal OLE – server shaklida ishlatish mumkin.

Panorama - 97 dasturiy komponenti, Windows 95 va Windows NT tizimlarida bajarilishga mo'ljallangan, dinamik kutubxonalar majmuasi (DLL) shaklida yetkazib beriladi.



2.3-rasm. Panorama elektron xaritalar ma'lumotlar bazasining sxemasi.

Raqamli vektorli karta.

Raqamli vektor kartografik ma'lumot o'z ichiga ma'lum masshtab, proyeksiya, koordinatalar sistemasidagi berilgan hudud uchastkasini ta'rifi jamlaydi. Unga hududdagi jismlarning materik (masofaviy) va semantik (atributiv) xossalarning haqiqiy (ko'l, o'rmon va h.k.) va shartli (suv bosgan hudud, ma'muriy chegara va h.k.) ta'riflarini jamlanmasi sifatida keltirilgan.

Bundan tashqari, vektorli kartaning ichida ma'lumotli matn va foydalanuvchilarning maxsus ma'lumotlari jamlanishi mumkin.

Raqamli vektor kartografik ma'lumot saqlanish holatida SXF formatida (SXF formatining texnik tasnifi – “Hudud to'g'risidagi raqamli ma'lumotning ochiq formati”) berilishi mumkin.

SXF formatdagi bir dona fayl raqamli xaritaning 1 nomenklaturali yoki shartli varag'iga to'g'ri keladi.

Panorama tizimi ochiq SXF formatida namoyish etilgan vektorli xaritalarni qayta ishlashga mo'ljallangan. Boshqa formatdagi ma'lumotlar (F1, F1M, F20V, F20S, DXF va b.) esa SXF formatiga yoki aksincha SXF formatidan boshqa formatga, OC MS-DOS uchun Panorama elektron xaritalar tizimining dasturiy ta'minoti yordamida o'chirish mumkin.

Raqamli vektor kartalar to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi tuzilmalarga ega:

- Xarita varag'i to'g'risida pasport ma'lumotlar (masshtab, proyeksiya, koordinatalar tizimi, varaq burchaklarining to'g'ri burchakli va geodezik koordinatalari va h.k.);
- Xarita jismlarining metrik ma'lumotlari (hududdagi jismlarning koordinatalari);
- Xarita jismlarining semantik ma'lumotlari (jismlarning turli xossalari);
- Vektorli xaritaning ayrim jismlarini qatlamlari, lokalizasiya xususiyatlari va foydalanuvchi tomonidan o'rnatilgan belgilar bo'yicha mantiqiy birlashtirish mumkin.

Bu holda, turli amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladigan ma'lumotlarni tasvirlash iyerarxik tuzilmasi shakllanadi.


Vektorli elektron xaritalarning ma'lumotlar tuzilmasi raqamli xaritalar tuzilmasini ma'lum semantik tavsifga ega, bir-biriga o'xshash jismlarni tasvirlashda qo'llaniladigan shartli ma'lumotlar bilan to'ldiradi (Masalan, beton yo'l va asfalt yo'l har xil rangdagi chiziqlar bilan tasvirlanishi mumkin).

Vektorli xaritalardagi jismlarning turlari jismlarning semantik tavsifi (xususiyatlari, atributlari), jismlar birlashtiriladigan qatlamlar, elektron xaritalarni grafik qurilmalarda shakllantirishda qoʻllaniladigan shartli belgilarning taʼriflari elektron xaritalarning raqamli klassifikatorida (resurs fayli) saqlanadi.

2.3. Xududning kadastr xartisini elektron dasturlar asosida yaratish va yuritish.


Kadastr syomkasi hududning navbatchi xartisini yaratishning oxirgi bosqichi Panarama dasturida bajariladi va bu quyidagicha amalga oshiriladi:

Buning uchun xududning 1: 500 yoki 1: 2000 topografik plani olinadi(2.4-rasm).



2.4-rasm.

Uning sxemasi boʻyicha kategoriyasi aniqlanib, narxi chiqariladi. Undan soʻng topografik plani skaner qilinadi. Skaner qilingan xarita kompyuterning “JPEG” formatiga tushadi (2.5-rasm). Undan soʻng “JPEG” formatidagi xar bitta topografik plani uning nomenklaturasi yoziladi. Bu ishlar bajarilib boʻlgach, karta oriyentirovka qilinadi. Buning uchun «Panarama» dasturi ochiladi.




2.5-rasm.

Bu dasturda 1: 500, 1:1000 yoki 1:2000 xaritani oriyentirovka qilish uchun faylga kirib, reja yaratiladi. Rejaga klassifikator tanlanadi. Klassifikator – bu shartli belgilar to’plam fayli, ya’ni bunda shartli belgilarning qalinligi, rangi, uzunligi, diametri masshtabga mos ravishda yaratilgan bo’ladi (2.6-rasm).



2.6-rasm.

Bundan keyin, kartaning nomi va masshtabi qo'yiladi. Keyin koordinatalar tushiriladi. Koordinata tushirishda janubi-g'arb, shimoli-sharq "Y", janubiy-g'arb, shimoliy-sharq "X" koordinatalari tushiriladi va reja tayyor bo'ladi. Tayyor reja bo'sh to'rtburchak ramka ostida chiqadi. Bu ramkaga faylga kirib "JPEG" ni ya'ni, rastrni qo'shamiz. Rastrimiz ramkaning bir chetiga tushib qoladi, rastrning to'rtala burchagini ramkaning to'rtala burchagiga olib kelish uchun "transformasiya" qilamiz. Transformasiya qilish uchun birinchi rastrning to'rtala burchagi krest orqali belgilab olinadi. Undan so'ng ramkaning to'rtala burchagi ko'rsatiladi, so'ng ramkaga rastr kiritiladi va 1:500 yoki 1:2000 oriyentirovka qilingan karta chizmaga tayyor bo'ladi (2.7-rasm).




2.7-rasm.

Xaritani chizishda balandlik, gorizontallarning balandligi kiritilib ketiladi. Bu ishdan so'ng "Matrisa" yaratiladi.


Matrisa past- balandliklarni ranglar bilan ajratadi, masalan: shaxar kvartallari to'q malla, daraxtzorlar to'q ko'k, baland tog'li joylar to'q jigarrangda, past joylar

yashil rangda ko'rinadi. «Panorama» dasturida chizish jarayonida kartani keraklicha kattalashtirib chizish xam mumkin (2.8-rasm).



2.8-rasm

Chizishda yo'llar, ariq, ko'cha va boshqalar rastrdan ko'tariladi va tasdiqdan o'tgan shartli belgilar asosida chiziladi. Rastrdagi barcha narsa chizilib bo'lingandan so'ng kartaning ramka chetini yaratamiz, buning uchun shablon teriladi. Kartaga shablon va ramka qo'shiladi, bunda xaritaning tepa qismida vazirlik nomi, obyektning qayerda joylashganligi (respublika, viloyat) nomenklaturasi yoziladi. Kartaning to'rtta tomoniga tutash qismlar nomenklaturasi yoziladi. Kartaning pastki qismida obyektning sxemasi, masshtabi, sistema balandligi, ishlab chiqaruvchi, korxonona nomi va chiqarilgan yili yoziladi. Xaritaning so'nggi ishlari bajarilib bo'lgandan so'ng tasdiqdan o'tadi. Bu xududning elektron raqamli kadastr navbatchi kartasi deyiladi (2.9-rasm).



2.9-rasm

CREDO DAT DASTURIDA ISHLASH.

CREDO DAT dasturi muxandis-geodezik dala o'lchash ma'lumotlarini kameral qayta ishlash ishlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan. Dasturni qo'llashdan oldin syomka qilinayotgan yer uchastkasida yaratilgan geodezik tayanch nuqtalarining koordinatalari (x,u,n) Gauss-kryuger koordinata sistemasida aniqlangan bo'lishi kerak (kadastr syomkasi uchun maxalliy sistema koordinatsida aniqlanadi). Aniqlangan syomka tayanch nuqtalarining koordinatalari va dala o'lchash ma'lumotlari (taxeometrik syomka natijalari-gorizontalar va vertikal burchaklar, gorizontalar masofa) asosida CREDO DAT dasturi barcha taxeometrik plan olishdagi hisob ishlari qiyalik burchagi o'lchangan masofalarning gorizontalar proyeksiyalari, nisbiy balandliklari va syomka nuqtalarni nisbiy balandligini hisoblab chiqaradi.

Tuzatilgan masofalar va koordinatalar asosida yer uchastkasining syomka nuqtalari, topografik obyektlar nuqtalari koordinatalar katalogi hisoblab chiqariladi. O'lchash natijalarini tenglashtirish natijasida quyidagi ma'lumotlar olinadi:

- tayanch nuqtalarining tenglashtirilgan koordinatalari;
- tomonlar uzunliklari;
- tomonlar yo'nalishlarining direksion burchaklari;
- kartografik obyektlarining planli va balandlik koordinatalari;
- syomka tayanch nuqtalarining planli va balandlik koordinatalarini aniqlashdagi o'rtacha kvadratik xatoliklar aniqligini baholash qiymatlari;

Raqamli kadastr syomkasini tuzishda GeoniCS-2007 dasturini qo'llash.

GeoniCS -2007 dasturi - Avto CAD / AvtoCAD Sivil 3D dasturlari negizida ishlovchi dastur bo'lib, dala o'lchash natijalari bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar asosida kadastr raqamli plani tuzishni avtomatlashtiruvchi sistemadir. Ushbu dastur avtomatlashtirilgan usulda 1:500 dan 1:2000 mashtabdagi kadastr planini chizish va ularni zarur shartli belgilar bilan rasmiylashtirish imkoniyatiga ega.

Ushbu dasturni ishlatish jarayonida quyidagi ma'lumotlardan foydalanish mumkin:

- mavjud arxiv materiallaridan foydalanish, ushbu material skaner qilinib, dastur orqali korrekcirovka ishlari amalga oshiriladi;
- topografik-geodezik dala o'lchash ma'lumotlarini AvtoCAD dasturini qo'llagan holda, taxeometrik xomaki plan yordamida texeometrik syomka plani rasmiylashtiriladi;
- rasmiylashtirilgan topografik syomka materiallaridan DXF faylga o'tkazilgandan keyin geoinformatsion tizim (GIT) yaratishda keng imkoniyatlar yaratiladi;
- mazkur dasturning keng imkoniyatlaridan biri, kadastr syomkasidagi xarakterli nuqtalarni "11-104-97 SNiP ga mos keladigan 1:500 - 1:5000 lik masshtabdagi topografik planlar uchun shartli belgilar" bo'yicha rasmiylashtirish imkoniyati mavjudligidir.

Dasturda shartli belgilarni rasmiylashtirish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- topografik klassifikatorlar bo'yicha;
- alfavit tuzilishi bo'yicha;
- maxsum tematik ko'rsatkichlar bo'yicha, masalan: gidrografiya, yo'llar va yo'l inshootlari, sanoat obyektlari, topografik belgilar, o'simliklar va tuproqlar, muxandislik kommunikasiyalari va boshqalar.

3-bob. Kadastr navbatchi xaritasini yaratish va yuritish jarayonida mehnat xavfsizligi va atrof-muhit ekologiyasi.

Barcha bajariladigan dala ishlarini tashkil qilish va o'tishda mehnat intizomi, texnika xavfsizligi va mehnatni tashkil qilish asosiy mezondir. Geodezik dala ishlarini boshlashdan oldin texnika xavfsizligi va mehnatni himoya qilish bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish zarur.

O'rnatilgan tartibda tayyorlangan jurnalga har bir mutaxassis va ishchi texnika xavfsizligi va mehnatni tashkil qilish bilan tanishganligi to'g'risida imzo chekadi.

Umumiy qoidalar.

1. Geodezik dala ishlarini boshlashdan oldin brigadir ish joyini ko'rishi, geodezik asbob va uskunalarni yaxshilab ko'zdan kechirishi kerak.
2. Geodezik asboblarning qutisidagi ruchkalari (qo'l ushlagichlari) mahkam o'rnatilgan bo'lishi kerak, reykaning mahkamlagich vintlari soz holda bo'lishi kerak.
3. Uchi o'tkir nishon tayyoqlarni, shtativlarni va boshqa asbob uskunalarni uchlarini oldingi tomonga qaratib olib yurishga ijozat beriladi.
4. Yo'llardan o'tishda reykalarni qo'lda buklangan holda olib yurish kerak, yelkada olib o'tish taqiqlanadi.
5. Yo'lga yaqin joylarda geodezik asboblarni qarovsiz qoldirish taqiqlanadi.
6. Shtativga o'rnatilgan geodezik asboblarni yerga mahkam o'rnatish zarur.

7. Reyka, nishon tayog'i va shtativni daraxtga, devorga va boshqa tafsilotlarga suyab qo'yish taqiqlanadi.

8. Yo'lda masofa o'lchashda xavfsizlikni ta'minlash uchun qizil bayroqchalarni qo'yish kerak.

9. O'lchash asboblari, reyka va nishon tayyoqlarini qo'ldan-qo'lga berish kerak, yerga tashlash taqiqlanadi.

10. Teodolit yo'lidagi nuqtalar, piket nuqtalari va boshqa nuqtalarda qoziqchalarni yer baravar qilib berkitish kerak, asfalt yo'llarga qoziqchalarni berkitish taqiqlanadi.

11. Reyka, nishon tayyoqlarini va boshqa narsalarni elektr simlariga, trolleybus simlariga va shunga o'xshashlarga 2 metr kam masofaga ko'tarish taqiqlanadi.

12. Yuk ko'tarish mexanizmlari oldiga asboblarni o'rnatish, qurilayotgan bino atrofida yurish taqiqlanadi.

13. Kanalizasiya va suv yo'llarida ish olib borishda ularning quduqlarida yoqilg'i yoki zaharli gazlar bo'lishini e'tiborga olish lozim. Quduqlaga tushish taqiqlanadi, agarda zarur bo'lsa, shamollatish zarur. Ish tugagandan keyin quduqlar og'zini berkitish zarur.

14. Yomg'ir yog'ishidan oldin ishni to'xtatish va xavfsiz joyga o'tish zarur.

15. Yoz paytida issiq soatlarda ishni to'xtatish zarur, amaliyot rahbarining ko'rsatmasiga binoan, ish soatlarini ertalab va kechki vaqtlarga o'tkaziladi.

16. Geodezik dala ishlarini davrida ishchilardan shaxsiy gigiyena talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida atrof-muxitni ximoya qilish davlat darajasidagi ahamiyatiga egaligi ta'kidlab o'tilgan.

Ya'ni, "Yer, yer osti va usti boyliklari, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi va boshqa tabiiy resurslar umumxalq boyligi va uni asrab-avaylash, uni kelajak avlod uchun yetkazish davlatimiz tomonidan ximoyaga olingan".

Inson xayotida intensiv o'zgarishlar va urbanizasiya natijasida, suv resurslaridan tejamkorlikga e'tiborsiz ishlatishi natijasida yurtimizda ekologik axvolning buzilishi, ya'ni yer va suv resurslari, fauna va floraning keskin tubdan o'zgarishi ro'y berdi.

Tabiiy resurslarni qo'riqlash va ulardan tejamkorlik va oqilona foydalanish eng dolzarb masalardan biri xisoblanadi, jamiyatning rivojlanishida ekologik xavfsizlik jamiyatning ekonomik rivojlanishi va ijtimoiy ximoyalashda asosiy komponentlardan biri xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markazida, dengiz va okeanlardan olisda va sug'oriladigan yerlari jixatdan yirik davlat xisoblanadi. Shuning uchun, bu zaminda paxtachilik, mevachilik, bogdorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik rivojlangan, lekin suv resurslarining limitlanganligi respublikada bu soxalarning rivojlanishiga to'skinlik qiladi.

Respublikamizning asosiy suv xavzalarini tashkil qiluvchi omil bu Amudaryo va Sirdaryodir, bu ikki daryoning suv sig'imining yig'indisi 115,6 km kubni tashkil etadi. Lekin bu respublikamizning suv resurslari bilan to'liq ta'minlanmaganligidan dalolatdir.

Mamlakat axolisining o'sishi tabiiy boyliklarga va suv resurslariga extiyojni oshiradi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, axolining o'sishga moyilligi va global iqlim o'zgarishi natijasida O'zbekiston territoriyasida 2030-yilda suv xavzalarining 10% -15% parlanish natijasida va 10 -20 % o'simliklarga sarflanishi natijasida suv resurslarining yo'qotilishi taxminan 18% tashkil etadi. Shuning uchun, Markaziy Osiyoda bu muammo eng aktual xisoblanadi. Bu muammoni xal etish uchun daryo va suv xavzalaridan unumli foydalanish zarurdir.

Bu muammoni xal qilish, xayvonot va o'simlik dunyosidan ratsional foydalanish va ximoyalashda, xayvonot va o'simliklarni aloxida ko'rikda bulgan qo'riqxonalarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Biologik resurslarni planli ravishda foydalanish uchun ular xaqida to'liq informatsiyaga ega bo'lishimiz zarurdir. Buning uchun to'liq va aniq xisob yuritilishi zarurdir. Bu sistemani rivojlantirish uchun maxsus tizim, ya'ni tabiat muxiti va biologik resurslar monitoring tashkil etilishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002-yil 3 aprelda № 111 sonli qarori « O'zbekiston Respublikasida davlat monitoringida atrof-muxitni o'rni» ga asosan, vazirlik, boshqarma, maxkama va xo'jalik subyektlarni koordinasiyalash O'zbekiston Respublikasi tabiat, muxitni ximoyalash qo'mitasiga yuklatilgan. Yuklatilgan vazifani va koordinasiyadan effektiv foydalanish uchun boshqarishning sistemasi, atrof-muxit xolati xaqida ma'lumlar bazisi yaratilgan. Sistemaning muxim elementlaridan biri bu ekologik indektr xisoblanadi, u davlat va ayrim regionlardagi ekologik vaziyatni baxolaydi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro tabiatni ximoyalash tashkiloti a'zosidir va bugungi kunda atrof-muxitni ximoya qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati natijasida atrof-muxitning sifatining yaxshilanishiga va regionlarda ekosistemaning turg'unlashishiga erishildi.

4-bob. Kadastr navbatchi xaritasini yaratish va yuritish ishlari iqtisodiyoti.

Aylanma mablag'larning aylanishi va korxonalarining moliyaviy holati.

Ma'lumki, korxonalarining faoliyat ko'rsatishi uchun ular kerakli miqdorda ishlab chiqarishning asosiy va aylanma fondlari mehnat va boshqa resurslari bilan ta'minlanishi lozim. Ishlab chiqarishning asosiy fondlari o'z tarkibiga bino, inshoot, uskuna, xo'jalik jihozlarini olib, ular ishlab chiqarishning texnikaviy bazasini tashkil etadi va uzoq vaqt ko'plab ishlab chiqarish sikllarida xizmat qiladi. Ularning qiymati amortizasiya hisoblash orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxiga o'tkaziladi. Ishlab chiqarish aylanma fondlari o'z tarkibida ishlab chiqarish zaxiralarini pul mablag'larini olib, ular ishlab chiqarishning bir siklida

foydalaniladi va qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxiga to'liq o'tkaziladi.

Ishlab chiqarishda ham asosiy, ham aylanma mablag'larni borligi holati ulardan foydalanish darajasi korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Aylanma mablag'laridan samarali foydalanilsa, maxsulot tannarxi kamayadi, foyda ko'payadi, rentabelik darajasi ko'tariladi.

Aylanma mablag'larning aylanishi tezlatilsa, uning bir qismi tejaladi, qo'shimcha foyda barpo bo'ladi, undan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun va boshqa maqsadlarga foydalanish mumkin. Aksincha, aylanma mablag'larning aylanishi sekinlashtirilsa, korxonaga aylanma mablag'lari yetmay qoladi va korxonada faoliyatini davom ettirish uchun tashqi manbalardan (bank krediti va hokazo) foydalanib, korxonada aylanma mablag'lari to'ldirilishi kerak.

Shu sababli, korxonalarni aylanma mablag'larining aylanishining o'zgarishi va uni korxonalarining moliyaviy holatiga ta'siri tahlil etiladi. Bu tahlil ikki xil yo'nalishda o'tkaziladi:

1. Umuman aylanma mablag'lari bo'yicha;
2. Aylanma mablag'larning aholida elementlari bo'yicha;

Umuman aylanma mablag'lar bo'yicha quyidagi ko'satgichlar tahlil etiladi:

1. Aylanma mablag'larni aylanish miqdori.
2. Aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun o'rtacha sarf qilingan kalendar kunlar.
3. Aylanma mablag'larni birlashtirish ko'rsatkichi.
4. Aylanma mablag'larni tejalgan yoki to'ldirilgan summasi.

Aylanma mablag'larning o'rtacha 70 foizi ishlab chiqarishda, 30 foizi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonida foydalaniladi. Demak, aylanma mablag'larni aylanishiga ishlab chiqarish siklining muhlati va mahsulotni sotish uchun sarf qilingan vaqt ta'sir ko'rsatadi.

Aylanma mablag'larni aylanish miqdori sotilgan mahsulotlardan olingan tushumni aylanma mablag'larni o'rtacha qiymatiga bo'lish bilan aniqlanadi. Lekin tushumdan qo'shilgan qiymatga solingan soliq bilan to'langan aksiz solig'i olib

tashlanadi, ya'ni sotilgan mahsulotlardan olingan tushum "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"dan olinadi, aylanma mablag'larni o'rtacha qiymati buxgalteriya ma'lumotlariga asoslanib, hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi. Aylanma mablag'lar to'g'risidagi buxgalteriya ma'lumotlari ikki shaklda bo'lishi mumkin: intervallik qatorlar va momentlik (lahza qatorlar).

Intervalik qatorlar- aylanma mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar aniq davrlarda beriladi. Masalan, aylanma mablag'larini o'rtacha qiymati oylar bo'yicha beriladi: mart - 320 m. s., aprel - 460 m.s., may-480 m.s.

Shundan ma'lumotlar berilgan bo'lsa, aylanma mablag'larning chorakdagi o'rtacha qiymati oddiy o'rtacha arifmetik yo'l bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$\frac{320 + 460 + 480}{3} = \frac{11260}{3} = 420 \text{ m. c.}$$

Momentlik (lahzalik) qatorlarda aylanma mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar bu aniq davrlarning boshlanishiga keltirishi mumkin. Masalan: martga - 320 m.s., 1 aprelga - 460 m.s., 1 mayga - 480 m.s. va 1 iyunga -530 m.s.

Shunday ma'lumotlar berilgan bo'lsa, aylanma mablag'larning birinchi chorakdagi o'rtacha qiymati xronologik yo'l bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$\frac{\frac{320}{2} + 460 + 480 + \frac{530}{2}}{4 - 1} = \frac{1365}{3} = 455 \text{ m. c.}$$

Korxonalar faoliyatida mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotishga sarf qilingan vaqtni o'zgarib turishi bilan aylanma mablag'larni har bir aylanishga turlicha vaqt sarf qilinishi mumkin.

Aylanma mablag'larni birkitish ko'rsatkichi sotilgan mahsulotlarning har bir so'miga nisbatan sarf qilingan aylanma mablag'larni ifodalaydi. Aylanma mablag'larni aylanishi tezlashtirilsa, bu sarf kamayadi, aylanma mablag'lari aylanishi susaytirilsa, bu sarf oshib boradi. Aylanma mablag'larni aylanishini tezlashtirish natijasida aylanma mablag'larni tejalish summasini yoki aylanma

mablag'larni aylanishini susaytirish natijasida aylanma mablag'larni to'ldirish summasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich korxonada buxgalteriyasida mavjud aylanma mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarga qarab ikki yo'l bilan aniqlanadi. Agarda korxonada yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlardan ikkinchisi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, ya'ni aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlar ko'rsatkichi bo'lsa, quyidagi yo'l bilan hisoblanadi:

$$O'KK_1 - O'KK_0 \times \frac{MT}{B}$$

(4.12)

Bu yerda:

$O'KK_1$ va $O'KK_0$ – joriy va o'tgan davrlarda aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlar;

MT – sotilgan mahsulotlardan olingan tushum;

B – tahlil qilinayotgan vaqt – kalendar kunlar;

Aylanma mablag'larni aylanishi bilan korxonaning moliyaviy holati o'rtasidagi aloqani ifodalovchi ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlarda ko'rib chiqamiz.

6-jadval.

Aylanma mablag'larni aylanish ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2012 yil
1.	Sotilgan mahsulotlardan olingan tushum ming.so'm	39468.8	70796.8
2.	Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati ming so'm	3916.5	1173.8

	Aylanma mablag'larning aylanish	11.4	11.9
3.	miqdori (1:2) marta		
4. 5.	Aylanma mablag'larning bir marta aylanishga sarf qilingan kalendar kunlar(365:3) kun	18.9	26.7
6.	Aylanma mablag'larning birkirish ko'rsatkichlari (2.1) tiyin	4.6	7.9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada 2010-2012 yillarda aylanma mablag'larning aylanishi tezlashgan aylanma mablag'larning aylanish miqdori 120 martadan 181 martagacha oshgan, aylanma mablag'larini bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlar 30,4 dan 20,2 kunlarga qisqartirilgan, aylanma mablag'larni birkirish ko'rsatkichi 8.3 tiyindan 5.5 tiyingacha kamaytirilgan. Demak, korxonada aylanma mablag'lar tejalgan. Aylanma mablag'larni tejalgan summasi:

$$(30.4-20.2) \times \frac{39468.8}{365} \text{ ёки } (8.3-5.5) \times 39468.8 = 1070.5$$

ya'ni, 1070.5 ming so'mni tashkil etgan.

Aylanma mablag'larning aylanishini o'zgarishini korxonada moliyaviy holatiga ta'sirini chuqurroq tahlil etish uchun aylanma mablag'larning alohida elementlarini aylanishi tahlil qilish lozim. Aylanma mablag'larning alohida elementlarini aylanishiga korxonaning alohida bo'linmalarining sexlar, ombor xo'jaligi, marketing bo'limining faoliyati ta'sir ko'rsatadi. Demak aylanma mablag'larning alohida elementlarini tahlil qilish, kelgusida aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishga bag'ishlangan tavsiyalarni aniqlashtirishida korxonada bo'linmalarining faoliyatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

Aylanma mablag'larni alohida elementlari bo'yicha, ularning aylanishini tahlil etish quyidagi yo'nalishlarda o'tkazilishi mumkin:

- o'zlik aylanma mablag'larning aylanishi;
- me'yorlangan aylanma mablag'larning aylanishi;
- ishlab chiqarish zaxiralarning aylanishi;
- tugallanmagan ishlab chiqarishning aylanishi;
- tayyor mahsulotni aylanishi;
- jo'natilgan tovarlar va hisob-kitobdagi mablag'larning aylanishi;
- pul mablag'larni aylanishi;
- debitorlik qarzlarni aylanishi.

Aylanma mablag'larning alohida elementlarini aylanib turishi o'z xususiyatlariga ega. Masalan, o'zlik me'yorlangan, me'yorlanmagan aylanma mablag'larning aylanib turishi sotilgan mahsulotlarning hajmiga ishlab chiqarish zaxiralarning umumiy sarfiga ta'sir qiladi; tugallanmagan ishlab chiqarishni aylanib turishi tayyor mahsulotga; tayyor mahsulotlarning ombordagi qoldiqlarni aylanib turishi mahsulotlarni iste'molchilarga jo'natish hajmiga, iste'molchilarga jo'natilgan tovarlarni aylanib turishi korxonada hisob-kitob schyotiga pul tushishiga va hokazo.

Aylanma mablag'larni aylanib turishini qo'shimcha ko'rsatkichlari, ya'ni aylanma mablag'larning alohida elementlarini aylanib turish ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi.

1. O'zlik aylanma mablag'larning = o'zlik aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div sotilgan mahsulotlarning hajmi.

2. Me'yorlangan aylanma mablag'larning = me'yorlangan aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div sotilgan mahsulotlarning hajmi.

3. Me'yorlanmagan aylanma mablag'larning = me'yorlanmagan aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div sotilgan mahsulotlarning hajmi.

4. Ishlab chiqarish zaxiralarning = ishlab chiqarish zaxiralarning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div ishlab chiqarish zaxiralarning umumiy sarfi.

5. Tugallanmagan ishlab chiqarishning = tugallanmagan ishlab chiqarishning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot.

6. Tayyor mahsulotning = tayyor mahsulot qoldiqlarning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div jo'natilgan tovarlar hajmi.

7. Jo'natilgan tovarlar va hisob-kitobdagi mablag'larning = jo'natilgan tovarlar va hisob-kitobdagi mablag'larning o'rtacha qiymati \times tahlil qilinayotgan kalendar kunlar \div hisob-kitob schyotdagi tushgan pullar summasi.

8. Naqd pul mablag'larining = naqd pul mablag'larning o'rtacha qoldig'i \times taxlil qilinayotgan kalendar kunlar \div sotilgan mahsulotlarning hajmi.

Endi yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni amaliy materiallardan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun korxonaning hisobi ma'lumotlaridan foydalanamiz (ming so'm).

1. Sotilgan mahsulotlarning hajmi – 47800.
2. Ishlab chiqarish zaxiralarning umumiy sarfi – 300.
3. Umumiy ishlab chiqilgan tayyor mahsulot – 46500.
4. Jo'natilgan tovarlarning umumiy hajmi – 57000.
5. Korxonaning hisob-kitob schyotiga tushgan pul mablag'lar – 48000.

O'rtacha qoldiqlar ko'rsatkichlari:

Umumiy aylanma mablag'lar – 3000.

Shu jumladan:

- a) o'zlik aylanma mablag'lar – 2000.
- b) me'yorlangan aylanma mablag'lar – 650.
- g) ishlab chiqarish zaxiralari – 1000.
- d) tugallanmagan ishlab chiqarish – 800.
- e) tayyor mahsulot – 400.

j) jo'natilgan tovarlar va hisob-kitobdagi mablag'lar – 350.

Keltirilgan mahsulotlarga asosanib, aylanma mablag'larni alohida elementlari bo'yicha aylanib turishi ko'rsatkichlarini – bu aylanma mablag'larning bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlarni aniqlaymiz.

7-jadval.

Aylanma mablag'lari alohida elementlarining aylanib turish ko'rsatkichlari

№ t/r	Ko'rsatkichlar	Hisoblash uslubi	kunlar
1	Butun aylanma mablag'lar	$\frac{3000 \times 365}{47800}$	23
2	O'zlik aylanma mablag'lar	$\frac{2000 \times 365}{47800}$	15,3
3	Me'yorlangan aylanma mablag'lar	$\frac{2700 \times 365}{47800}$	20.6
4	Me'yorlanmagan aylanma mablag'lar	$\frac{650 \times 365}{47800}$	5.0
5	Ishlab chiqarish zaxiralar	$\frac{1000 \times 365}{30000}$	12.1
